



INNOVATIVE
WORLD

Jaf

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIGOTLAR



ILM-FAN

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI. ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



TEKNOLOGIYALAR

2025



Google Scholar



zenodo



«ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI» NOMLI
ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARНИ IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE WORLD» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «ORIENTAL JOURNAL ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY JOURNAL (OJAMR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 138572-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 3030-3079) "ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI" NOMLI ILMIY, MASOFAVIY RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASINI E'LON QILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. ANIQ FANLAR
2. TABIIY FANLAR
3. TEXNIKA FANLARI
4. PEDAGOGIKA FANLARI
5. IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR
6. TIBBIYOT FANLARI
7. IQTISOD FANLARI
8. QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELTIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.

ZAVQIY ASARLARI TIL XUSUSIYATLARI

Madaminova Tursunoy Ilhomjon qizi
Andijon davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhiti vakili bo'lgan Zavqiyning asarlari fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlari tahlil qilingan.

Tayanch so'z va iboralar: fonetik xususiyat, leksik xususiyat, grammatik xususiyat, leksema, sema, turkiycha, arabcha, fors-tojikcha, ruscha-baynalmilal.

O'zbek adabiyoti tarixida o'zining yuksak badiiy mahorati bilan yozilgan lirik va hajviy asarlari bilan ilmiy va adabiy jamoatchilikka yaxshi tanish bo'lgan Zavqiy o'zbek adabiyoti va o'zbek adabiy tili ravnaqiga katta hissa qo'shdi.

Ubaydulloh Zavqiy Muqimiy, Nisbat, Muhayyir, Furqat kabi ijodkorlar bilan bir davrda, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhitida ijod qilgan shoirdir.

Adabiyotshunos Po'latjon Qayumovning "Tazkirayi Qayumi" asarida yozishicha, Zavqiyning kafsh bozorida alohida do'konni ham bo'lgan. Xuddi shu davrda Zavqiyning ayrim she'rlari san'atkorlar tomonida kuyga solinib, xalq orasida sevib ijro etiladigan qo'shiqlarga aylanib ketgan.

Zavqiy asarlarida ijtimoiy ruh kuchli bo'lgani holda, uning "Ajab ermas", "Ko'z ochaylik", "Qissayi Farg'ona" kabi she'rlarida ijtimoiylik yanada kuchayganini sezamiz. "Zamona kimniki", "Bo'l", "Bekturboy" sarlavhali she'rlarida o'z davri ziddiyatlarini, xalqning ayanchli ahvolini mahorat bilan aks ettirgan.

Zavqiy asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlar o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishiga guvoh bo'ldik. Uning asarlaridagi o'ziga xos jihatlar quyidagi holatlarda aks etadi.

Fonetik xususiyatlari: Zavqiy asarlarida hozirgi o'zbek tiliga muqobil "i" tovushi o'rnida ko'pincha "u" tovushi qo'llanadi. Bunday holat ravishdosh, buyruq mayli, so'roq yuklamasi misollarida hamda asos tarkibida so'nggi bo'g'inda kuzatildi. Masalan: *uzub-uzib, so'rsun-so'rsin, degaymusan-degaymisan, termulub-termulib, nozuk-nozik, kokul-kokil, ko'ngul-ko'ngil, sanduq-sandiq* kabilari. "q" tovushi o'rnida "x" tovushi qo'llangan so'zlar bor: *axcha-aqcha* kabi. So'zlarda "p" tovushi o'rnida "f" tovushi qo'llangan o'rinar uchraydi: *kifrik-kiprik, fichoq-pichoq*. Ko'p hollarda "ilan" ko'makchisi "bila", "birla", "minan" tarzida ishlatilganini ko'ramiz. "Shu", "o'sha", "bu", "u", "hamma" kabi olmoshlar eski o'zbek tili davriga xos variantlarda "shul", "o'shal", "bul", "ul", "a", "hama" tarzida ifodalangan. So'z tarkibida "u" tovushidan oldin "v" tovushi orttirilishi hodisasi ham kuzatiladi, ya'ni *suvrat-surat* tarzida.

Buni biz mazkur so'zning tarixiy dublet shakli o'laroq ta'rifladik. Egalik affiksi bilan tugagan so'zlarga kelishik qo'shimchasi qo'shilganda "n" tovushi orttirilgan o'rinalar bor: "*o'rtasinda*", "*faslinda*", "*vaqtinda*" kabi. "o" tovushi "a"ga o'zgargan holatlarni ko'rish mumkin. Masalan, *yalg'uz-* *yolg'iz*, samonsomon, amon-omon shaklida keladi. Bunday ko'rinishga kontrast ravishda "*tolpinib*", "*yaro*", "*uko*" ko'rinishini, ya'ni, "a" tovushining "o"ga o'zgargan holatda uchratishimiz ham mumkin. "*Chunonchi*" modal so'zi "*onchunonkim*" tarzida, "*uchun*" bog'lovchisi qisqartirilib ...-*chun*, "*agar*" shart bog'lovchisi "*magar*" shaklida ifodalangan. Ba'zan so'zlar tarkibidagi unlilarning o'rin almashish hodisasi kuzatiladi: "*qop-qora*", "*qap-qaro*", "*ato-ota*", "*ano-on*" shaklida. Ko'p so'zlarning tarixiy shakllarda qo'llanilgani kuzatildi: "omma" so'zi "om", "aytgil" so'zi "ayg'il" kabi.

Zavqiy asarlarining leksik tarkibini tahlil qilar ekanmiz, qadimgi qardoshlik aloqalari sababli umumturkiy-o'zbekcha va fors-tojikcha so'zlar, islom dinining kengayishi natijasida kirib kelgan arabcha so'zlar, shuningdek, XIX asrdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat taqozosi bilan ommalashgan ruschabaynalmilal so'zlar ijodkor asarlari leksikasining alohida xususiyatlarini tashkil qiladi. Zavqiy she'rlarida qo'llangan so'zlarning aksariyat qismini turkiy so'zlar tashkil qiladi. Jumladan, shoir asarlarida qo'llangan o'z qatlam so'zlarni quyidagicha guruholashtirish mumkin:

- 1) insonlar bilan bog'liq nomlar: *ota, ona, xotin, erkak, bola, mingboshi, yamoqchi*.
- 2) hayvonlar bilan bog'liq nomlar: *tulki, qumri, eshak, echki, qarg'a, it*.
- 3) mavhum otlar: *boylik, yalg'on, ochlik, o'y, o'lim, murod*.
- 4) oziq-ovqat nomlari: *suv, osh, jaz*.
- 5) vaqt bilan bog'liq so'zlar: *kecha, kunduz, tun, kun, tong, chog', qish, yoz, vaqt*.
- 6) undov so'zlar: *oh, voh, voy, ey, dod*.
- 7) taqlid so'zlar: *ting-ting, g'ujur, bijir, g'ing-g'ing*.
- 8) sifatlar: *och, yalang'och, buzuq, yopiq, oq, qora, yaxshi, yamon, yalg'uz*.

Zavqiy asarlaridagi arab tilidan o'zlashgan so'zlarni ham guruholashtiramiz:

- 1) shaxs nomlari: *mudarris, hokim, odam, qozi, sulton, mahbub, mashoyix, ahbob, mirzo, ma'shuq* kabilari;
- 2) o'rinn-makon bildiruvchi so'zlar: *do'kon, maktab, falak, dunyo, olam, bino, majlis* kabilari;
- 3) oziq-ovqat semasiga ega leksemalar: *taom, kabob*;
- 4) vaqt bilan bog'liq leksemalar: *subh, zamon, soat, ayyom*;
- 5) diniy nomlar: *rasul, shayx, mo'min, avliyo, taqvo, ilm, duo, riyo, din, firdavs, ixlos* kabi so'zlar;

6) mavhum ma'nodagi leksemalar: *san'at, xulq, muruvvat, asror, ne'mat, odob, visol, nomus, ehson* kabi so'zlar.

Zavqiyning ayrim baytlarida iqtibos san'ati qo'llanadi. Bunda Qur'oni Karim oyatlariga ishora qilib, oyatning boshlanish so'zini baytda keltiradi. Iqtiboslar shoirning ma'lum lisoniy, poetik maqsadlariga xizmat qiladi.

Mohi muborak aro rahmatidin ochti bob,

“Irji'i” savtin bilib, rihlati ko'si jaras.

“Irji'i” – ma'nosi “qayt”, bu arabcha so'z Qur'oni Karimning “Fajr” surasi 28-oyatidan olingan: “Robbingga sen Undan, U sendan rozi bo'lgan holda qayt!”

Ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda iqtiboslar yaxlit to'laligicha yoki yuqoridagi misolimizda bo'lganidek biror parcha tarzida qo'llangan. Bu kabi mashhur oyat va hadislardan olingan iqtiboslarning mazmunini bilish va anglash o'sha davr kitobxonni uchun mushkul bo'lmagan, albatta.

Qo'qon xonligida fors-tojik tili alohida mavqega ega bo'lganligi kabi omillar Zavqiy ijodida ham o'z aksini topgan. Uning asarlarida kelgan forscha-tojikcha so'zlarni guruhlashtirishga harakat qildik:

1) shaxsni bildiruvchi leksemalar: *savdogar, mehmon, do'st, mezbon, podsho, hamsoya, usta, gado* kabi;

2) o'rinn-joyni bildiruvchi leksemalar: *xona, vayrona, mayxona, jahon, shahar, bozor, go'sha, rasta* kabi;

3) hayvonlar bilan bog'liq nomlar: *pashsha, bulbul, magas, chorva, zog'*;

4) o'simlik semali leksemalar: *g'uncha, gul, barg, daraxt, chaman* kabi;

5) mavhum otlar: *afg'on, nola, dard, mehr, paymona, faryod* kabi;

6) modal so'zlar: *afsuski, ofarin*.

Zavqiy asarlarida o'z qatlam, arabcha, fors-tojikcha so'zlar bilan birgalikda ruscha baynalmilal so'zlarni ham uchratishimiz mumkin. Biroq ijodkor she'rlerida ularning salmog'i katta bo'lmasa-da, qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Ko'r bo'lmasa pul oqib kelurmi,

Bu badshakl, slepoy durakka.

O'ruscha maqtab Zavqiy: xorosho,

Juvon, pir, mardu zan monandi ishdur.

She'rdan anglashiladiki, Zavqiy ijodiga rus tilining ham ta'siri yo'q emas. Yuqoridagi she'rda “xorosho”, “durak”, “slepoy”, “o'rus” kabi so'zlar va yana “uchut”, “protsent”, “protest”, “pristav” kabi ruscha so'zlardan foydalanganini kuzatamiz.

Zavqiy ijodining til xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, asarlarining grammatic xususiyatlari ham diqqatimizni tortadi. Uning ijodida ko'plab grammatic xilmassalliklarga duch kelamiz. Jumladan, kelishik qo'shimchalariga to'xtalsak: jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -g'a, -a shaklida, tushum kelishigi

esa -in bilan ifodalangan, qaratqich kelishigi qo'shimchasi muqobili sifatida -ni shakli, chiqish kelishigi -din qo'shimchasi bilan, o'rin kelishigi qo'shimchasi sifatida o'rni bilan -ga, ko'p hollarda -da qo'shimchasi ishlatilgan. Sho'ir o'z asarlarida ravishdoshning -ibon, -yub, -ub, -b shakllaridan foydalangan, bu bilan eski o'zbek tili xususiyatlarini ko'rsatadi. Sifatdoshlar esa -qon (-qan), -g'on (-g'an) ko'rinishida keladi. O'tgan zamon qo'shimchalarining -du, -tu variantlaridan hamda birinchi shaxs ko'plikni ifodalash uchun -k qo'shimchasidan foydalangan. Ot yasovchi qo'shimchalarning eng ko'p qo'llanilgan variantlari sifatida -lug', -lik, -liq, -lig' qo'shimchalari olindi. Harakat nomini hosil qilish uchun esa -mog' (-mag'), -mak qo'shimchalaridan va so'roq yuklamasi sifatida -mu qo'shimchasidan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, Zavqiy o'z she'riyati bilan o'zbek adabiy tilini xalq tiliga xos grammatik shakllar bilan mukammallashtirdi. Shuning uchun ham o'zbek adabiy tili Zavqiy ijodi bilan yangi bosqichga ko'tarildi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. "Ajab zamona": She'rlar/To'plovchilar: A.Madaminov, A. Turdialihev.-T:"Sharq", 2003.-176 b.
2. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi.-T., Toshkentdavlat Sharqshunoslik instituti, 2009.
3. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy fonetikasi.- Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
4. Fozilov E. O'zbek tilining tarixiy morfologiyasi.- Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1965.

TASVIRIY SAN'ATNING PAYDO BO'LISH TARIXI**Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

[oltipinoyadhamova@gmail.com](mailto:oltinoyadhamova@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at fanining paydo bo'lishi, rivojlanish jarayonlari, tarixiy bosqichlari va uning jamiyatdagi roli tahlil qilinadi. Tasviriy san'atning ilk shakllari insoniyat tarixining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Maqolada tasviriy san'atning rivojlanishiga ta'sir qilgan omillar, uni o'rghanishning metodologiyasi, va tasviriy san'at ta'liming shakllanishi haqida so'z boradi. Maqola tasviriy san'atning ilmiy fan sifatida shakllanishi va uning jamiyatdagi ahamiyatini o'rghanishga qaratilgan.

Kalit So'zlar: Tasviriy san'at, tarix, madaniyat, san'at tarixi, tasviriy san'at ta'limi, qadimiy san'at, san'atning rivojlanishi, estetik ta'lim, o'quv metodikasi, san'at fanining paydo bo'lishi.

Аннотация: В статье анализируется зарождение искусствоведческой науки, процессы ее развития, исторические этапы и ее роль в обществе. Первые формы изобразительного искусства восходят к древнейшим временам человеческой истории. В статье рассматриваются факторы, повлиявшие на развитие изобразительного искусства, методологию его изучения, формирование художественного образования. Целью статьи является изучение становления изобразительного искусства как научной дисциплины и его значения в обществе.

Ключевые слова: изобразительное искусство, история, культура, история искусства, изобразительное образование, древнее искусство, развитие искусства, эстетическое воспитание, педагогическая методика, художественное зарождение науки.

Abstract: This article analyzes the emergence of fine arts science, development processes, historical stages and its role in society. The first forms of fine art go back to the ancient times of human history. The article discusses the factors that influenced the development of fine art, the methodology of its study, and the formation of fine art education. The article aims to study the formation of fine art as a scientific discipline and its importance in society.

Keywords: Fine art, history, culture, history of art, fine art education, ancient art, development of art, aesthetic education, educational methodology, art emergence of science.

KIRISH

Tasviriy san'at - insoniyatning eng qadimiy va rivojlanish jarayonida muhim rol o'ynagan sohalaridan biridir. Tasviriy san'at asosan rasm, haykaltaroshlik, grafika, va boshqa turdagiz vizual ifodalar orqali hissiyot va g'oyalarni tasvirlashni maqsad qiladi. Uning paydo bo'lishi insoniyat tarixining ilk bosqichlariga borib taqaladi. O'zining tarixiy rivojlanish jarayonida tasviriy san'at jamiyatning estetik va madaniy qadriyatlarini ifodalashga xizmat qilib kelgan. Bugungi kunda tasviriy san'at nafaqat insonning ichki dunyosini aks ettirish, balki ilmiy va madaniy tadqiqotlar olib borishning bir vositasi sifatida ham qaraladi. Ushbu maqola tasviriy san'at fanining tarixini o'rghanadi, uning ilmiy tushunchalarini shakllantiradi va tasviriy san'at ta'liming rivojlanishiga alohida e'tibor qaratadi.

1. Tasviriy san'atning ilk shakllari va paydo bo'lishi

Tasviriy san'atning boshlanishi odamzodning qadimgi tarixiga, ayniqsa, tosh davriga borib taqaladi. Boshida tasviriy san'atning eng asosiy shakli bo'lib, odamlar yirtqich hayvonlar, tabiat va turmush tarzi bilan bog'liq tasvirlarni toshga, g'or devorlariga chizganlar. Bunday tasvirlar qadimgi yirtqichlarning ovlanishi yoki tabiiy jarayonlarning tasvirini aks ettirgan.

2. Klassik davrda tasviriy san'at

Klassik davrda, ya'ni Yunoniston va Rim imperiyasining tarixi davomida tasviriy san'at rivojlanishning yuqori cho'qqisiga chiqqan. Yunonlar tasviriy san'atni o'zlarining falsafiy va estetik qarashlariga asoslanib rivojlantirganlar. Ularning asosiy maqsadi insonni go'zallik va mukammallik orqali ifodalash edi. Rim esa Yunon san'atini o'zlashtirib, uni yangi shakllar va uslublar bilan boyitdi.

3. O'rta asrlar va tasviriy san'at

O'rta asrlarda tasviriy san'at asosan diniy mavzularni aks ettirgan. Xristianlikning keng tarqalishi tasviriy san'atda diniy ikonalar va freskalar yaratishga olib keldi. Shuningdek, gotika va romanskalar uslublari san'atda alohida o'rin tutgan. Renessans davrida san'atda yangilanish va tiklanish yuz berdi. Insonning yuksak qadriyatlari, ilm-fan va tabiatga bo'lgan qiziqishlar tasviriy san'atda aks etib, ular yanada erkin va tabiiy ifodalana boshladи. Leonardo da Vinci, Michelangelo, va Rafael kabi rassomlar o'z asarlari orqali tasviriy san'atni yangi bosqichga olib chiqishdi.

4. Modernizm va zamonaviy tasviriy san'at

XX asrda tasviriy san'atda yangi yondoshuvlar, uslublar va texnologiyalar paydo bo'ldi. Impressionizm, ekspressionizm, kubizm, dadaizm va surrealizm kabi yo'nalishlar san'atning rivojlanishida muhim o'rinn tutdi. Bu davrda tasviriy san'at ilmiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'langan.

4.1. Impressionizm va Ekspressionizm

Impressionist rassomlar tabiatni va kundalik hayotni yoritish uchun yangi ranglar va yoritish usullarini qo'lladilar. Ekspressionizm esa insonning ichki his-tuyg'ularini ifodalashga qaratildi. Surrealizm san'atda anglangan va anglanmagan ongni birlashtirishga harakat qilgan. Postmodernizm esa tasviriy san'atda eski an'analarni tanqid qilib, yangi ifoda vositalarini izlashni davom ettirdi.

5. Tasviriy San'atning Ilmiy Fan Sifatida Shakllanishi

Tasviriy san'at asosan amaliyat va ijodiy jarayon sifatida rivojlangan bo'lsa-da, XIX asrda san'at tarixining ilmiy fani sifatida rivojlanana boshladi. Tasviriy san'at ta'limi va san'at tarixi bo'yicha dastlabki ilmiy izlanishlar ham shu davrga to'g'ri keladi. Tasviriy san'at fani insoniyat tarixida qadim zamonlardan boshlab, turli davrlar va madaniyatlarda rivojlanib kelgan. U nafaqat estetik ifodaning vositasi, balki ijtimoiy, diniy va madaniy qadriyatlarni aks ettirgan va ifodalagan. Tasviriy san'atning ilmiy fan sifatida shakllanishi, uning nafaqat amaliy, balki ilmiy tadqiqotlarga ham asoslanishiga olib keldi. Bugungi kunda tasviriy san'at nafaqat san'atshunoslar uchun, balki keng omma uchun ham qiziqarli va o'rganilishi lozim bo'lgan soha hisoblanadi. Tasviriy san'at - bu insonning estetik his-tuyg'ularini va ijodiy fikrlarini ifodalash uchun turli vositalardan, texnikalardan va usullardan foydalanadigan san'atning bir turi. Tasviriy san'atda asosan vizual vositalar, ya'ni rasm, chizma, ranglar, shakllar, kompozitsiya, tekstura, materiallar va boshqa tasviriy elementlar ishlataladi. Bu turdag'i san'at, ko'pincha tabiatan estetik va hissiy ifodalanishni maqsad qilgan bo'lib, insonning ichki dunyosini yoki tashqi olamni vizual tarzda aks ettiradi.

Tasviriy san'atning asosiy turlari:

1. Rasm (Peyzaj, portret, figura va b.): Tasviriy san'atning eng mashhur shakllaridan biri. Rasmda ranglar, soyalar, va turli materiallardan foydalananib, ijodiy tasavvurlar ifodalangan. Rasmda ijodkor tashqi dunyo yoki ichki his-tuyg'ularini aks ettirishga intiladi.
2. Chizma: Rasmga qaraganda aniqroq va kamroq rangli bo'lib, asosan chizg'ilar va nuqtalar orqali ifodalangan san'at shaklidir. Chizmalar ko'pincha tasvirning shaklini yoki kompozitsiyasini yaratishda ishlataladi.
3. Grafika: Bu turdag'i san'at asarlarini yaratishda, asosan matbaa va bosma texnologiyalardan foydalaniлади. Grafik san'ati ichiga ofset, linografiya, xattotlik kabi yo'naliшlar kiradi.
4. Skulptura (Haykaltaroshlik): Uch o'lchamli shakllar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Skulptura ham shakl, rang, va materiallarning kombinatsiyasini o'zida aks ettiradi.

5. Kollaj: Turli materialllar va vositalarni birlashtirish orqali yaratilgan tasviriy asar. Kollajda qog'ozlar, matolar, fotosuratlar va boshqa materialllar birlashtiriladi.
6. Dijital san'at: Texnologiya yordamida yaratilgan san'at asarlari. Kompyuter grafikasi, vektorli dizayn, 3D modellash va boshqa raqamli texnologiyalarni o'z ichiga oladi.

Tasviriy san'atning asosiy elementlari:

1. Rang: Rang tasviriy san'atda hissiy ta'sir va estetik ifodalanishda muhim rol o'yinaydi. Ranglarning turli kombinatsiyasi, ranglar palitrasining ishlatilishi san'at asarini jonlantiradi.
2. Kompozitsiya: Tasviriy san'atda kompozitsiya – bu barcha elementlarning o'zaro joylashuvi va tashkil etilishi. Yaxshi kompozitsiya asarlarni diqqat bilan tomosha qilishga va ularning ma'nosini anglashga yordam beradi.
3. Chiziq: Chiziqlar – bu tasviriy san'atning asosiy vositalaridan biri. Chiziqlar orqali shakllar, strukturaviy detallar va kompozitsion elemenlar yaratiladi.
4. Tekstura: Tasviriy san'atda tekstura – bu yuzaning tuzilishi va materiali haqidagi taassurotni beradi. Rasmda bu faktura ranglar va chiziqlar orqali ifodalanadi.
5. Shabl: Shabl – bu tasviriy san'atda ko'rindigan asosiy elementlardan biridir. Asarlarning shakli yoki geometrik tuzilishi ko'pincha kompozitsiya va ma'noni ta'sirchan qiladi.
6. Proportsiya: San'atda proportsiyalar, ya'ni tasvirning o'lchamlari o'rtasidagi munosabat, asarlarning to'liqligini va balansini ta'minlaydi. Tasviriy san'at nafaqat estetik zavq olishni ta'minlabgina qolmay, balki jamiyatning madaniy, tarixiy va siyosiy o'zgarishlarini aks ettiradi. Tasviriy san'at orqali odamlar o'z fikrlarini, hissiyotlarini va qarashlarini ifodalashadi. Ayniqsa, san'at tarixida muhim voqealar yoki ijtimoiy hollar tasviriy san'at asarlari orqali yodgorlik sifatida saqlanib qoladi. Tasviriy san'at nafaqat ijodiy rivojlanishga, balki o'quvchilarda estetik tushunchalar, ijodiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tasviriy san'at fanini o'qitishda kreativ metodlarni qo'llash o'quvchilarni nafaqat san'at texnikalariga o'rgatadi, balki ularga o'zini ifodalashning yangi yo'llarini ko'rsatadi. Bu o'quvchilarga yangi g'oyalarni yaratish va o'z shaxsiy ijodiy dunyosini qurishga yordam beradi.

Tasviriy san'atga bo'lgan yondoshuvlar, o'quvchilarning o'zlariga xos san'at shakllarini yaratishga va ularni kengroq kontekstda tushunishga imkon yaratadi. Shuning uchun tasviriy san'at ta'limi, shuningdek, o'quvchilarda

tanqidiy fikrlashni, ijodiy qarorlar qabul qilishni va san'at orqali boshqalarga tushuncha berishni rivojlantiradi.

XULOSA

Tasviriy san'at – bu insoniyatning eng qadimiy va o'ziga xos ifoda vositalaridan biri bo'lib, u estetik va hissiy tajribalarni aks ettirish uchun turli vositalardan foydalanadi. Tasviriy san'at o'zining xilma-xil turlari, texnikalari va usullari bilan jamiyatni va insonni tushunishga yordam beradi. San'at ta'limi va kreativ metodlarning qo'llanilishi esa o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gombrich, E. H. (2006). **The Story of Art**. Phaidon Press.
2. Janson, H. W. (2012). **History of Art**. Pearson Education.
3. Arnheim, R. (1969). **Visual Thinking**. University of California Press.
4. Gombrich, E. H. (2000). **Art and Illusion: A Study in the Psychology of Pictorial Representation**. Phaidon Press.
5. Menzel, D. (2002). **The History of Art**. Harry N. Abrams.



INNOVATIVE
WORLD

**JOY NOMLARIDA LINGVOMADANIY BELGILARNING AKS ETTIRILISHI
(GENDER XUSUSIYAT MISOLIDA)****Toshtonova Muxlisa**

University of Economics and Pedogogy

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif" kafedrasи

assistant-o'qituvchi

toshtonovam@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola joy nomlaridagi (toponimlardagi) gender xususiyatlarning lingvomadaniy belgilari tahliliga bag'ishlangan. Toponimlar madaniyat, tarix va jamiyatdagi gender rollarini aks ettirib, o'ziga xos lingvistik va madaniy belgilarni saqlab kelgan. Tadqiqotda erkak va ayollarga oid joy nomlarining tarixiy va semantik ko'rinishlari o'rganilgan. Misollar orqali gender stereotiplari va ularning toponimikadagi aks etishi tahlil qilingan. Ushbu ish toponimika va gender o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga yangi yo'nalishlar ochib beradi.

Kalit so'zlar: toponimika, gender, lingvomadaniy belgi, joy nomlari, stereotip.

Аннотация: Эта статья посвящена анализу лингвокультурных характеристик гендерных особенностей в названиях мест (топонимах). Топонимы отражают культуру, историю и гендерные роли в обществе, сохраняя уникальные лингвистические и культурные особенности. В исследовании изучены исторические и семантические аспекты названий мест, связанных с мужчинами и женщинами. Примеры иллюстрируют гендерные стереотипы и их проявление в топонимике. Работа открывает новые направления в изучении взаимосвязи между топонимикой и гендером.

Ключевые слова: топонимика, гендер, лингвокультурные особенности, названия мест, стереотипы.

Abstract: This article is dedicated to analyzing the linguistic and cultural characteristics of gender features in place names (toponyms). Toponyms reflect culture, history, and societal gender roles, preserving unique linguistic and cultural markers. The study examines historical and semantic aspects of place names associated with men and women. Examples illustrate gender stereotypes and their manifestation in toponymy. This work opens new avenues for exploring the connection between toponymy and gender.

Keywords: toponomy, gender, linguistic and cultural marker, place names, stereotypes.

Kirish. Joy nomlari (toponimlar) madaniyat, tarix va jamiyatning turli jihatlarini o'zida aks ettiradi. Ularda gender xususiyatlarining lingvistik va madaniy belgilari ham muhim o'rinn tutadi. Ushbu maqola joy nomlaridagi gender xarakteristikalarining lingvomadaniy ko'rinishlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Misollar orqali joy nomlari orqasida yotgan gender belgilar va ular jamiyatdagi rolini yoritib berishga harakat qilinadi.

Joy nomlarining lingvomadaniy mohiyati. Toponimlar ko'pincha jamiyatda hukmron bo'lgan gender rollarini aks ettiradi. Tarixiy jarayonlarda erkaklar va ayollarga oid ijtimoiy rollar turlicha namoyon bo'lgan. Ushbu jarayonlar natijasida ba'zi joy nomlari kuch, qudrat va yetakchilikni ifodalagan bo'lsa, boshqalari esa go'zallik, mehribonlik yoki diniy muqaddaslikni o'zida mujassam etgan.

Erkaklarga oid toponimlar

Ko'plab joy nomlari tarixiy shaxslar yoki erkak liderlar nomi bilan atalgan. Masalan:

"Temurko'l" – Amir Temur sharafiga atalgan joy bo'lib, kuch va strategik qudratni ifodalaydi.

"Shayxontohur" – Toshkentdag'i shayx nomi bilan bog'liq bo'lib, diniy va ma'naviy yetakchilik ramzi.

"Qorabek" – qahramonlik va jangchilikni ifodalaydi.

"Iskandar" – Iskandar Zulqarnayn sharafiga atalgan bo'lib, jahongirlik va kuch ramzi.

"Bobotog" – erkaklik qahramonligi va tog'ning qudratini o'zida mujassam etgan.

Ayollarga oid toponimlar

Ayollarga oid joy nomlari nisbatan kamroq uchraydi, lekin ular ko'pincha mifologik yoki diniy belgilarga bog'liq bo'ladi. Misollar:

"Bibiqora" – diniy va mifologik obraz bilan bog'liq.

"Anbarota" – ayol timsoli orqali ehtirom va hurmat ifodasi.

"Bibixonim" – Amir Temur ayoli nomiga bag'ishlangan yodgorlik, nafislik va muqaddaslik ramzi.

"Guliston" – ayollik go'zalligi va nafisligini ifodalaydi.

"Oyparin" – oyday yoruqqina va chiroqli obrazni aks ettiradi.

"Suvayyo" – tabiat va go'zallikni ifodalaydi, qadimiy afsonalarga asoslangan.

Lingvistik tahlil. Toponimlarning lingvistik tarkibi gender stereotiplarini aks ettiradi. Ushbu jihatlar morfonimlar va semantikalar orqali o'rGANILADI.

Morfonomlar. Erkaklarga oid joy nomlarida kuch va hukmronlik ma'nolari ko'proq uchraydi. Misollar:

"...ko'l" – kenglik va ulug'likni ifodalovchi morfemalar.

"...tog" – qudrat va barqarorlik ramzi.

“...kent” – markaz va yetakchilikni aks ettiradi.

Ayollarga oid joy nomlari esa nafislik va diniy ma'nolar bilan bog'liq. Misollar:

“**Bibi...**” – hurmat ifodalovchi element.

“**Anbar...**” – go'zallik va sof xushbo'ylik ramzi.

“**...gul**” – nafislik va estetik ma'no beruvchi element.

Semantika. Semantik jihatdan erkaklarga oid toponimlar kuch, qahramonlik va hukmronlikni ifodalasa, ayollarga oid toponimlar go'zallik, mehribonlik va muqaddaslikni aks ettiradi:

“**Qorabek**” – qahramonlik yoki jangchilik timsoli.

“**Bibixonim**” – muqaddaslik va go'zallik ramzi.

“**Anbar ota**” – hurmat va ulug'lash ifodasi.

Hududiy tahlil:

Toshkent viloyati

Erkaklarga oid: “Shayxontohur” (“shayx” – erkak diniy yetakchini ifodalaydi).

Ayollarga oid: “Bibixonim” (Amir Temur ayoli nomiga bag'ishlangan me'moriy yodgorlik).

Samarqand viloyati

Erkaklarga oid: “Temurko'l” (“Temur”dan kelib chiqqan; qudrat va yetakchilik belgisi).

Ayollarga oid: “Anbar ota” (ayol nomi orqali ehtirom).

Buxoro viloyati

Erkaklarga oid: “Iskandar” (Iskandar Zulqarnayn sharafiga atalgan joy).

Ayollarga oid: “Bibiqora” (mifologik va diniy ma'no bilan bog'liq joy nomi).

Xorijiy mamlakatlar

Angliya: “Queenstown” (“qirolich” ifodasi ayol yetakchilik ramzi).

Rossiya: “Petrograd” (“Pyotr” ismi orqali erkak yetakchilik ma'nosi berilgan).

Hindiston: “Lakshmi Nagar” (“Lakshmi” hindu mifologiyasidagi ayol ma'budasi).

Jamiyat va gender o'zaro aloqasi. Joy nomlarining gender belgilari jamiyatdagi tarixiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni aks ettiradi. Gender rollari va stereotiplari joy nomlari orqali nafaqat til, balki madaniy xotirada ham o'z ifodasini topadi. Masalan, erkak liderlar sharafiga ko'proq joy nomlari berilgani jamiyatda erkaklar yetakchilik rolini uzoq vaqt davomida egallab kelganini ko'rsatadi. Ayollarga oid toponimlarning kamligi esa gender tengsizlikning madaniy jihatlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa. Joy nomlari lingvistik va madaniy belgilarni aks ettirib, gender xususiyatlarini jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishidan kelib chiqib namoyon qiladi. Ushbu tadqiqot toponimika va gender aloqalarini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Jamiyatdagi gender rollari va stereotiplari lingvistik qoldiqlar sifatida joy nomlarida saqlanib qolgan bo'lib, ularni o'rganish kelajakda tilshunoslik, tarix va madaniyat tadqiqotlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Qayumov, A. (2010). O'zbek toponimikasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Mamajonova, D. (2018). "Toponimlar va madaniyat." O'zbek Tili va Adabiyoti jurnali, 4-son.
3. Smith, J. (2009). *Geographical Names and Gender in Culture*. London: Routledge.
4. Karimov, H. (2015). *Tarix va toponimika*. Toshkent: Sharq NMAK.
5. Pavlenko, A. (2007). "Gender and Place Names: A Cross-Cultural Perspective." *Journal of Linguistic Anthropology*, 17(1).



INNOVATIVE
WORLD

**YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLANTIRISH YO'LIDA
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR NING AHAMIYATI****Abduraimov Sherali**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm kafedrasi assistenti
e-mail: sheraliphd1987@gmail.com

Arapov Mavlonbek

Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm kafedrasi stajyor o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarni huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishda ta'lif-tabiyaning ahamiyati, pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos o'rni ko'satilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, Huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyat, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article shows the importance of education and the unique role of pedagogical technologies in the formation of legal consciousness and culture of young people today.

Key words: legal consciousness, legal culture, legal democratic state, civil society, pedagogical technologies.

Bizning asosiy maqsadimiz huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun barcha fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantish, uni yuksaltirish talab etiladi. Bu borada hukumatimiz tomonidan ko'plab qonun va davlat dasturlari, rejalar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risda" gi farmoni ham shular jumlasidandir. Farmonda ko'rsatilishicha, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi tanqid qilingan. Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lif va tarbiya borasidagi ishlar tizimi va uzviy olib borilmayotganligi, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining ishtiroki etarlicha ta'minlanmaganligi sabab qilib ko'rsatilgan. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy

immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlargacha sadoqat, huquqbazarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi, aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtaisdagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarning yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar belgilangan.:yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatishdek muhim va mas'uliyatli vazifa biz ustozlarga yuklatilgan. Bu topshiriqni bajarish esa bizga ham faxr, iftixor tuyg'ulari bilan birga, zavqli bo'lishi kerak. Shundagina biz ushbu ko'makni amalga oshirgan bo'lamiz. Buning uchun bizga zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar katta yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar tinglovchi talaba-yoshlarni va o'qituvchining bирgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan talabalarni fikrlaga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu yerda ularlarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, o'qituvchi talabaning fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqt bilan to'g'ri xulosani aytadi. Natijada talaba xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar talaba va o'qituvchi o'rtaсидаги o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin talabaning fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga talabaningni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. E'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda talaba o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o'quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Xulosa. Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo'lib, biror faoliyat yoki metodda o'zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda "o'qitishning interaktiv metodlari" termini qo'llanishini ham guvoxi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganinggiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 9-yanvar, PF-5618-soni
- 2.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 - yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 -yil 14-yanvar. – T.: «O'zbekiston», 2017. - 104 b.

**YOSHLARNI UMUMINSONIY PRINSIPLAR ASOSIDA TARBIYALASHDA
NAVOIY MEROSINING O'RNI****Abduraimov Sherali**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm kafedrasi assistenti
e-mail: sheraliphd1987@gmail.com

Arapov Mavlonbek

Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm kafedrasi stajyor o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik va adolat ruhida tarbiyalashda ma'naviy merosimizni ahamiyati nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishi, shaxs sifatida kamol topishida Mir Alisher Navoiy merosi haqida fikr-mulohazalar berilgan. Umuminsoniy qadriyatlar hisoblangan insonparvarlik, vatanparvarlik va adolat tushunchalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, Navoiy merosi, insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat, tinchlik, halollik, futuvvat, shaxs.

Abstract: In this article, opinions are given about the importance of our spiritual heritage in educating young people in the spirit of humanity, patriotism and justice, and the legacy of Mir Alisher Navoi in their personal development. The concepts of humanity, patriotism and justice, which are universal human values, are highlighted.

Key words: Navoi, Navoi's heritage, humanitarianism, patriotism, justice, peace, honesty, futuvvat, person.

Kirish. Xalqimiz azaldan insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat, tinchlik, ahil-qo'shnichilik va mehr-oqibatni avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonda uchinchi renessans hodisasini yuz berishi uchun eng avvalo ushbu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, yurtimizda adolat, tinchlik, demokratiya, farovonlik, yuksak madaniyat, so'z va vijdon erkinligi va har bir kishini shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohadagi islohotlar mazmun-mohiyati bilan insonni ulug'lashga, uning sha'ni, qadr-qimmatini oshirishga va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan qimmatlidir. Keyingi yillarda mamlakatimizda aholini muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi bo'lmish xotin-qizlarni har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash, muammolarini o'rGANIB, ularni bartaraf etishga ko'mak berish masalasi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Umuminsoniy fazilatlarning mohiyatini yoshlarga yetkazish, jamiyatimizning ijtimoiy muhofazaga ehtiyoj qismi bo'lmish aziz ayollarimizning e'zozlash har bir soha vakilining diqqat markazida bo'lishi zarur. Inson yuksak fazilatlar va qadriyatlarni egallamasdan, o'zida insonga muhabbat tuyg'usini shakllantirmasdan, adolatli, xulqli, odobli, insonparvar, vatanparvar bo'lmasdan turib yetuk shaxs, komil inson bo'lib yetishuvi mumkin emas.

Asosiy qism. Inson yuksak fazilatlar va qadriyatlarni yoshlarda shakllantirishda bizga Alisher Navoiy merosi bizga juda asqatadi. U xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham, ko'ngil bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi, xalq manfaatini o'ylaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarни haqiqiy inson deb biladi.

"Odami ersang demagil odami,

Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami" [1.-B.5], - bayti Navoiy ma'naviyati va insonparvarligining markaziy nuqtasi desak, hech yanglishmaymiz. Navoiy butun umri bo'yicha insonparvarlikni, odamiylikni kuylab, uni ulug'lagan. Kishilar g'amida bo'lismish, yaxshilik qilish, muruvvat ko'rsatish bu buyuk zot hayotining mazmuni bo'lgan. Uning qabrida mana bu so'zlar bitib qo'yilgan: "Shohi g'aribon", ya'ni g'ariblar, yolg'izlar, faqirlar shohi.

Navoiy sahovat va muruvvatda benazir inson bo'lgan.O'zining joylardagi yer-suvlari, mol-mulklaridan kelgan daromadlarini to'laligicha xayriya ishlariga sarflagan..

Hazrat Navoiy saxiylikni insonparvarlik va komillikning muhim xislati deb biladi.

Odamiylik insonni inson qiladigan, uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib turadigan nodir fazilatdir. Saxiylik esa odamiylik, insonparvarlikning tarkibiy qismidir. Mutafakkirning ta'biri bilan aytganda:

"Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo'q"[2.-B.393].

Navoiy asarlarida chinakam insonparvar, mard va qahramon yigit sifatida "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazini ko'rsatadi. Ilm-fan bilan bolalikdan qiziqib kelgan Farhodni o'z davridagi barcha hunarlarni o'rganganligi, robotlar sistemasini yovuz kuchlarga qarshi qurol sifatida foydalanishi bugungi kun yoshlariga ham ayni damda amalga oshirishi kerak bo'lgan ishlarini belgilab beradi. Shuningdek, insonparvarlik namunasini arman elida xalq uchun ariq qazigani, bor hunarini ishga solgani lavhalarida ko'ramiz. Ushbu o'rinda Farhod tilidan aytilgan quyidagi so'zlarni yodga olaylik:

"Bu kecha mazlumi sitamkash,
Falak bedodidin bo'lg'on alamkash
Ki vayronlig'larida yuz xalaldur,

Agar qilsam madad voqe' mahaldur.

Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tufroqqamu ketkumdur oxir"[1.-B.104].

O'zbek milliy an'analariga ko'ra dardmandlarga malham topish, ojizlar va kambag'allarning ko'nglini ko'tarish, yetimlar va beva ayollarga yordam, rahm-shavqat qilish insoniylik jihatidan burchdir. Shoир bu haqda quyidagi misralarni yozgan:

"Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin yod aylagay,

Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

Demakki, bir muhtojning, noiloj, chorasisiz qolgan odamning ko'nglini ko'tarish, dardiga malham topish savoblik darajasi jihatidan vayron bo'lgan Ka'bani qayta tiklashdan afzaldir.

Endi vatanparvarlik g'oyasining talqini xususida. Vatanparvarlik insonparvarlik tushunchachi bilan hamohangdir. Milliy mustaqillik halqimizda, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'ularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shoirlarimiz Vatanni inson hayotining ma'no-mazmunini belgilaydigan qadriyat deb bilgan. Chunonchi, mutafakkir bobomiz Navoiy "Vatan tarkini bir nafas aylama, Yana ranji g'urbat havas aylama" deya nasihat qilgan.

Navoiyni mana bu ruboysi ham ko'pchilik yoddan biladi:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

(Ma'nosi: Odam o'zga elda hech xursand hayot kechira olmaydi, u yerdagи begona odamlar mehribonlik, shavqat ko'rsatmaydi. Bulbulga ham oltindan qafas, u sevgan qizil gul bo'lsa ham vatan bo'lolmaydi, ular tikondek sanchiladi.)

Aynan ushbu satrlar g'oyasi "O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l" maqoli ma'nosiga ko'ra teng. Yana xuddi shunga o'xshash fikrlarni shoирning "Saddi Iskandariy" dostonida "Kabutar hikoyati" da nasriy tarzdagi keng bayonida uchratamiz. Bu hikoyada kabutarni podshoh tuzog'iga tushib qolishi, bezatilgan qafasda uzoq vaqt saqlanishi va u yerdan fursat topib, ozodlikka chiqib, ancha olisda qolgan vatani tomon tinmay parvoz qilishi, u yerga yetgach uyasi buzilib ketgan bo'lsa ham harobada yashashni afzal bilganligi hikoya qilinadi.

Vayron bo'lsa ham o'z vataniga sodiq qolish g'oyasi hozirgi kun uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. "Odам savdosi" deb atalmish girdobning qurbaniga aylangan insonlar soni tobora ko'payib bormoqda. Undan tashqari hozirgi kunda o'zlarining g'arazli va jirkanch niyatlarini amalga oshirish maqsadida yurtimizga har-xil yo'llar bilan kirib kelayotgan, mustaqil

dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan yoshlарimizni qalbi va ongini qandaydir zasarli va buzg'unchi g'oyalar bilan egallahga harakat qilayotgan yovuz kuchlarga qarshi kurasha olish va o'z yurtini g'animlardan himoya qilish vatanparvar insonlar uddalay oladigan topshiriqdir.

Xulosa. Navoiyning asarlarining yosh avlodni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati shunda ko'rindiki, mutafakkirning yaratgan ilmiy merosidan barkamol avlodni tarbiyalash, inson va fuqarolarimizning komillikka intilishida bevosita keng jamoatchilik bilan hamkorlikda foydalanishni maqsadga muvofiq.

Navoiy g'azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlik va vatanparvarlikka oid qarashlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, odamiylikda boshqalarga o'rnak bo'ldi. U doimo oddiy xalq g'am-tashvishiga sherik bo'ldi, ularga homiylik qildi, jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan muammolar ustida bosh qotirdi va ularning yechimini topish yo'llarini izladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Navoiy Alisher. HAMSA/ Alisher Navoiy; qisqartirib nashrga tayyorlovchi A. Hojiahmedov; mas'ul muharrir V.Rahmonov. – T.: "Yangi asr avlodi", 2010. 348 bet.
- 2.Navoiy Alisher.Xazoyin ul-maoniylar: to'la asarlar to'plami. J.4.Favoyid ul-kibar. Alisher Navoiy:nashrga tayyorlovchilar: H.Sulaymon, I.Haqqul; mas'ul muharrir: S.Rafiddinov. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, A.Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. -T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2011. 400-bet.



BOLALAR HUQUQLARI VA KAFOLATLARI DAVLATIMIZ HIMOYASIDA**Abduraimov Sherali**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm kafedrasi assistenti
e-mail:sheraliphd1987@gmail.com.

Arapov Mavlonbek

Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm kafedrasi stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bolalar huquq va erkinliklari va ularning kafolatlarining aks etganligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida qanday meyorlar orqali kafolatlanganligi, tamoyillar, huquqlar sanab o'tilgan, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. konstitutsiya, qonun, huquq, , qonunchilik, shartnomma, bola, yoshlar, erkinlik, davlat

Abstract. In this article, children's rights and freedoms and their guarantees are reflected in the legislation of the Republic of Uzbekistan, by what standards they are guaranteed in the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan, principles, rights are listed and analyzed.

Keywords. constitution, law, right, , legislation, contract, child, youth, freedom, state

Bola har doimo himoyaga muxtoj. Bolalar himoyasi eng avvalo inson himoyasining bir qismi hisoblanadi. Shu bois, davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, inson huquqlarni himoya qilishda eng avvalo bolalar huquqlarini ta'minlash, ularning himoya qilishdek muhim vazifa mavjud edi. Bu vazifa milliy qonunchiligidan eng birinchi ado etilishi zarur bo'lgan masala sifatida qaraldi hamda alohida e'tiborga olindi. Bugungi kunda bolalar huquqlari ta'minlangan, kafolatlangan davlatlar qatoridamiz. Buning isboti sifatida dastlab, xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan konvensiya - "Bola huquqlari to'g'risida konvensiya" ni birinchilardan bo'lib ratifikatsiya qilganimizni e'tirof etsak bo'ladi. Bolalarning huquq va erkinliklari davlatimiz qonunlari va hujjatlarida o'z aksini topgan. Davlatimiz bolalar huquq va erkinliklarini va ularning kafolatlarini ko'zlab ko'plab qonunlar ishlab chiqdi. Bu ishlarning hammasi bolalar o'z huquq va erkinliklarida kamol topishi va kelgusida yetuk inson bo'lishlari uchun amalga oshirilgan.

BMT ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston aholisining yosh tarkibi dunyo aholisi yosh tarkibiga taqqoslansa, bolalar salmog'ining ancha yuqoriligi kuzatiladi. "2022- yil 1- yanvar holatiga yurtimizda 0-14 yoshdagи jami bolalar soni 10 million 518 ming 483 nafarni tashkil etgan.[6.]" Shu

jihatdan olib qaralsa, O'zbekiston qarish shkalasi bo'yicha jahondagi aholisi „yosh“ davlatlar qatoriga kiradi.

Shu o'rinda "bola kim?" savoliga izoh berishimiz lozim. Bu masalaning huquqiy asoslari 2008 -yil 7-yanvarda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" qonunining 3-moddasida ifoda etilgan: "**bola (bolalar)** - o'n sakkiz yoshga to'lgunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar)" [2.3-modda].

Shu o'rinda bola huquqlariga oid asosiy milliy qonunlarimiz eslatib o'tish joiz:

- -O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi;
- -Oila kodeksi
- -Fuqarolik kodeksi
- -O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida" gi qonuni
- -O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonuni va boshqa normative hujjatlar.

Ushbu sanb o'tilgan milliy qonunchiligidan bola huquqlari oid qonuniy kafolatlarining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- -yashash huquqi;
- -individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi;
- -erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- -himoyaga bo'lgan huquqi;
- -oilaviy muhitga bo'lgan huquqi;
- -g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalanish huquqi;
- -o'z fikrini ifoda etish huquqi;
- -axborot olish huquqi;
- -fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi huquqi;
- -xususiy mulkka bo'lgan huquqi;
- -turar joyga bo'lgan huquqi;
- -mehnat qilish huquqi;
- -dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqi;
- -sog'lig'ini saqlash huquqi;
- - va boshqa huquqlar.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining II-bo'limi "Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanadi hamda VII, VIII, IX, X, XI boblari inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlarini, burchlarini va ularning kafolatlarini o'z ichiga oladi. Albatta bola huquq va erkinliklari, uning burchlari va ularning kafolatlarini yuqoridagi boblar tarkibiga kiradi.

Ma'lumki, davlatning va jamiyatning ertangi taqdirlini yosh avlod belgilaydi. aynan, o'sib kelayotgan yoshlar, bolalar tashkil etadi. Davlat farovonligi, uning

taraqqiyotining katta qismi yoshlarga bog'liq bo'ladi va shu davlat kelajagini qay tariqa qurish ham ularning qo'lida bo'ladi. Shuning uchun davlat va jamiyat yoshlarning kelajagi uchun g'amxo'rlik qiladi, himoya qiladi. Buning uchun avvalo ular o'z huquq va erkinliklarini hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Kelajakni ishonib topshirish uchun davlat va jamiyat yosh avlodni - o'sib kelayotgan bolalarni qadrlamog'i va ularni aqlli, sog'lom va yetuk farzand bo'lib kamol topishi va tarbiyalanishi uchun zarur bo'lgan sharoit va imkoniyatlarni yaratib berishi darkor.

1989-yil 20-noyabr Bmt Bosh Assambleya Rezolyusiyasi asosida "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiya qabul qilingan. Bizning davlatimiz esa 1992-yil 9-dekabrda ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilishga erishgan ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa bola huquq va erkinliklarini kafolatlash uchun tashlangan eng muhim birinchi qadamlardan biri edi. Keyinchalik esa davlatimiz tomonida 2008-yil 7-yanvarda "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Unda bola huquqlarini himoya qilish va uning huquq va erkinliklarini kafolatlari bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan:

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bolaning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;
- bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;
- bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash;
- bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;
- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;
- bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;
- bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;
- bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;
- bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;
- bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
- bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;

- bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik qilish;
- bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish. [2.4-modda]

Undan tashqari bola huquqlarini yanada keng doirada kafolatlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-aprelda "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 4296-son qarori qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) o'rribbosari - Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etildi.

Biz keltirgan qonunlar, ustuvor vazifalar bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi kafolatlarini ta'minlab beradi.

Xulosa. Davlatimiz tomonidan bugungi kunda bolalar huquqlari va erkinliklari, ularning kafolatlari uchun qilingan ushbu norma va amalga oshirayotgan ishlar beqiyo. Barcha qonunlarimizning asosiy yo'nalishi inson huquq va erkinliklari uchun qaratilganligi esa juda quvonarli holatdir. Biz bolalar huquqlari va kafolatlari davlatimizning ishonchli himoyasida deb bemalol ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.Rasmiy nashr. – Toshkent, "O'zbekiston", 2023 yil. -80 b.
- 2.O'zbekiston Respublikasining qonuni. Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida. 2008 -yil 7-yanvar.
- 3."Harakatlar Strategiyasi 2017-2021" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni Lex.uz. 2017.
- 4."Yangi O'zbekiston strategiyasi 2022-2026" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni Lex.uz. 2022.
- 5.Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, 1992-yil. 42-bet
- 6.<https://stat.uz/uz/>

**AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH
STRATEGIYALARI VA TEKNOLOGIK TRANSFORMATSIYA
TENDENSIYALARI**

Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali

"Raqamli Iqtisodiyot" yo'nalishi talabasi

durdonaxonm.work@gmail.com

Mo'ydinjonov Ikromjon Ilhomjon o'g'li

Andijon davlat universiteti

"Matematika va informatika" yo'nalishi talabasi

ikromjonmoydjinonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining innovatsion rivojlanish strategiyalari va texnologik transformatsiya tendensiyalari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning turli sohalarga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli texnologiyalar, blokcheyn va IoT kabi ilg'or texnologiyalar asosida tashkilotlarning samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, texnologik innovatsiyalar va ularga moslashish strategiyalari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, innovatsion rivojlanish, sun'iy intellekt, texnologik transformatsiya, axborot texnologiyalari, blokcheyn tizimlari.

Аннотация: В статье анализируются стратегии инновационного развития информационных технологий и тенденции технологических преобразований. Обсуждается стремительное развитие современных цифровых технологий и их влияние на различные сферы. Рассмотрены пути повышения эффективности организаций на основе передовых технологий, таких как искусственный интеллект, большие данные, облачные технологии, блокчейн и IoT. Также обсуждаются технологические инновации и стратегии адаптации.

Ключевые слова: цифровые технологии, инновационное развитие, искусственный интеллект, технологическая трансформация, информационные технологии, блокчейн-системы.

Abstract: This article analyzes innovative development strategies of information technologies and technological transformation trends. The rapid development of modern digital technologies and their impact on various fields are discussed. Ways to improve the efficiency of organizations based on advanced technologies such as artificial intelligence, big data, cloud

technologies, blockchain and IoT are considered. Technological innovations and adaptation strategies are also discussed.

Keywords: digital technologies, innovative development, artificial intelligence, technological transformation, information technologies, blockchain systems.

I. KIRISH

Axborot texnologiyalari (AT) bugungi kunda jahon iqtisodiyotida va kundalik hayotda tobora muhim o'rinni egallab bormoqda. Zamonaviy innovatsiyalar sanoat, ta'lim, tibbiyat va boshqa sohalarga tub o'zgarishlar kiritmoqda. Xususan, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirishi, katta ma'lumotlar analitikasi esa biznes qarorlarini samaraliroq qabul qilishga yordam berishi ma'lum. Texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi natijasida kompaniyalar raqobatda ustunlikka erishish, resurslardan samarali foydalanish hamda yangi bozorlarga kirish imkoniyatlariga ega bo'lishmoqda. PwC kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt 2030-yilga kelib global iqtisodiyotga 15,7 trillion AQSh dollari miqdorida hissa qo'shishi kutilmoqda. Katta ma'lumotlar tahlili orqali esa korxonalar o'z daromadlarini 8-10% ga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Shu bilan birga, 5G texnologiyalari, bulutli hisoblash, blokcheyn va IoT kabi texnologik yechimlar hozirgi biznes modellarini yangilashga yordam bermoqda. 2024-yilga kelib bulutli hisoblash bozorining hajmi 623,3 milliard AQSh dollariga yetishi proqnoz qilinmoqda. Bu esa korxonalar va tashkilotlarning IT infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonini tezlashtirishi kutilmoqda. Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining innovatsion rivojlanish strategiyalari va texnologik transformatsiya tendensiyalari atroflicha tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ularga moslashish muhimligi, shuningdek, kelajakdagi muhim texnologik yo'nalishlar yoritiladi.

II. ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Axborot texnologiyalari sohasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlar global miqyosda keng o'rganilmoqda. Turli akademik nashrlar, xalqaro hisobotlar va tahliliy maqolalar ushbu sohada chuqur tadqiqotlar olib borish imkonini beradi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar analitikasi, bulut texnologiyalari va IoT bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar texnologik rivojlanishning asosiy omillarini oydinlashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, McKinsey & Company, PwC va Gartner kabi kompaniyalar axborot texnologiyalarining innovatsion rivojlanishi bo'yicha keng qamrovli hisobotlarni e'lon qilmoqda. Xususan, McKinsey kompaniyasining 2023-yilgi tadqiqotiga ko'ra, sun'iy intellektdan foydalanish natijasida korxonalar o'z samaradorligini 30% gacha oshirishi mumkin. PwC ma'lumotlariga ko'ra, katta ma'lumotlar analitikasi yordamida qabul qilingan biznes qarorlar 20-25% samaraliroq bo'lishi

kuzatilgan. Bulut texnologiyalari bo'yicha Forrester Research tomonidan olib borilgan tahlillar esa korxonalarning IT infratuzilmasini optimallashtirish orqali xarajatlarni 40% gacha kamaytirish imkonini berishini ko'rsatmoqda. IoT bo'yicha International Data Corporation (IDC) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa 2025-yilga kelib IoT qurilmalari soni 75 milliarddan oshishini ta'kidlamoqda. Mazkur tadqiqotda ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va tahliliy ma'lumotlar asos qilib olindi. Ma'lumotlar tahlilida sifat va miqdoriy yondashuvlardan foydalanildi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar bo'yicha mavjud ilmiy nashrlar va kompaniyalar tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlar o'rganildi. Bulut texnologiyalari va IoT bo'yicha esa sohadagi yetakchi kompaniyalarning real holatga asoslangan tahlillari qiyosiy ko'rib chiqildi. Bu bo'limda axborot texnologiyalarining rivojlanishiga oid yetakchi akademik va amaliy tadqiqotlar tahlil qilindi. Xususan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha turli mamlakatlardagi tendensiyalar o'rganilib, iqtisodiy samaradorlik jihatdan baholandi.

III. NATIJALAR

Ushbu tadqiqot natijalari axborot texnologiyalarining innovatsion rivojlanish va texnologik transformatsiya jarayonlariga ta'sirini ko'rsatadi. Dunyo miqyosida raqamli texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha ilg'or tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kompaniyalar o'z faoliyat samaradorligini oshirishda yangi yondashuvlardan foydalanmoqda. Bulut texnologiyalarining rivojlanishi IT infratuzilmasini soddalashtirishga olib kelmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bulut xizmatlarini joriy qilgan korxonalar dasturiy ta'minot xarajatlarini o'rtacha 25% ga kamaytirgan. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari ancha tezlashib, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi yaxshilangan. Blokcheyn texnologiyasining keng tarqalishi esa moliyaviy va logistika sohalarida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Masalan, yetkazib berish zanjirlarini avtomatlashtirish natijasida tovar harakatining shaffofligi oshgan va hujjatlashtirish jarayonlari 30% gacha tezlashgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish kompaniyalarga raqobatda ustunlik beradi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va biznes jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, axborot texnologiyalarining yanada rivojlanishi uchun investitsiyalarni oshirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

IV. MUZOKALARALAR

Axborot texnologiyalarining innovatsion rivojlanish strategiyalari va texnologik transformatsiya tendensiyalari doimiy ravishda rivojlanib, o'zgarib bormoqda. Ilmiy tadqiqotlar va amaliyot shuni ko'rsatadiki, kompaniyalar va davlat muassasalari ushbu tendensiyalarga moslashish uchun o'z

strategiyalarini yangilashga majbur bo'lmoqda. Ayniqsa, avtomatlashtirish va ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati korxonalar uchun strategik ustunlik yaratmoqda. Shu bilan birga, texnologik transformatsiya kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltirayotgani kuzatilmoqda. Masalan, IoT qurilmalarining keng tarqalishi natijasida ma'lumotlarni himoya qilish muammosi dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Innovatsion strategiyalarini ishlab chiqishda kompaniyalar va hukumatlar quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishlari kerak:

- **Texnologik integratsiya:** Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari bilan biznes faoliyatini uyg'unlashtirish.
- **Xavfsizlik choralarini kuchaytirish:** Ma'lumotlarni himoya qilish va kiberhujumlarning oldini olishga qaratilgan yechimlarni tatbiq etish.
- **Tashkilotlararo hamkorlik:** Ochiq ma'lumotlar ekotizimi orqali innovatsion loyihalarni ilgari surish.
- **Infratuzilmani modernizatsiya qilish:** Bulutli texnologiyalar va yangi avlod tarmoqlari (5G) yordamida IT infratuzilmasini optimallashtirish.

Bundan tashqari, texnologik transformatsiyaning ijtimoiy ta'siri ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga ish o'rinalining o'zgarishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida an'anaviy kasblarning ayrim turlari yo'qolib borishi mumkin, lekin shu bilan birga yangi imkoniyatlar ham yaratiladi. Muzokaralar natijasida shuni aytish mumkinki, axborot texnologiyalari tendensiyalarining rivojlanishi davom etmoqda va bu jarayonni izchil boshqarish, yangi texnologiyalarga moslashish va xavfsizlik choralarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

V. XULOSA

Axborot texnologiyalarining innovatsion rivojlanish strategiyalari va texnologik transformatsiya tendensiyalari kelajakda yanada rivojlanib, jamiyat va iqtisodiyotning turli sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tashkilotlar samaradorligini oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu jarayonni doimiy ravishda kuzatib borish va yangi tendensiyalarga moslashish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. McKinsey & Company (2023) 'The future of AI and its impact on business'. Available at: <https://www.mckinsey.com>
2. PwC (2023) 'AI's contribution to the global economy by 2030'. Available at: <https://www.pwc.com>

3. Gartner (2024) 'Big Data and AI trends for businesses'. Available at: <https://www.gartner.com>
4. Forrester Research (2023) 'The impact of cloud computing on business operations'. Available at: <https://www.forrester.com>
5. International Data Corporation (IDC) (2024) 'IoT market growth and predictions'. Available at: <https://www.idc.com>
6. Harvard Business Review (2023) 'The role of blockchain in future economies'. Available at: <https://hbr.org> (Accessed: 10 February 2025).



ЗАМОНАВИЙ ШАҲРИСАБЗ КАШТАЧИЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС БАДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Бокиева Гузал Илҳом қизи.

Камолиддин Беҳзод номидаги

Миллий рассомлик ва дизайн институти

Санъатшунослик ва музейшунослик факултети

Санъатшунослик таълим йўналиши З - босқич талабаси

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақола замонавий Шаҳрисабз каштачилигидаги ўзгаришлар ва унинг ҳунармандчилик ҳамда миллий дизайн ривожига таъсирини чуқур таҳлил қилишга қаратилган. Тадқиқот натижалари ҳунармандчилик соҳасидаги мутахассислар ва дизайннерлар учун амалий аҳамият касб этади.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Шаҳрисабз каштачилиги, миллий ҳунармандчилик, бадиий хусусиятлар, нақшлар, анъанавий услугуб, замонавий дизайн, халқ амалиёт санъати, композиция, каштачилик техникаси.

АННОТАЦИЯ: Целью данной статьи является глубокий анализ изменений в современной вышивке Шахрисабза и ее влияния на развитие ремесленничества и национального дизайна. Результаты исследования имеют практическое значение для специалистов и дизайнеров в области ремесел.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Шахрисабзская вышивка, национальное ремесло, художественные особенности, узоры, традиционный стиль, современный дизайн, народно-прикладное искусство, композиция, техника вышивки.

ANNOTATION: This article is aimed at an in-depth analysis of the changes in modern Shakhrisabz embroidery and its impact on the development of handicrafts and national design. The results of the study are of practical importance for specialists and designers in the field of handicrafts.

KEYWORDS: Shakhrisabz embroidery, national handicrafts, artistic features, patterns, traditional style, modern design, folk applied art, composition, embroidery technique.

Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиши қўп жиҳатдан анъанавий бадиий ҳунармандчиликнинг истиқболидаги тараққиётини белгилаб берди. Давлатимизда мустақил тараққиётнинг дастлабки йилларидағи жуда катта иқтисодий қийинчиликларга қарамай, маданият ва санъат, шунингдек, бадиий ҳунармандчилик тармоқларини молиялаштириш, хусусий тадбиркорликни шакллантириш учун шарт-шароитлар яратиш, амалий санъат усталарига молия ва солиқ имтиёзларини бериш борасида жиддий чора-тадбирлари амалга оширилди. Бу эса анъанавий

бадий ҳунармандчиликни қайта тиклаш ва уни такомиллаштиришга кенг йўлларни очиб берди. Бу холат ўз навбатида келажаги буюк давлатнинг юксалишига замин яратади. Ўзбекистоннинг декоратив каштадўзлик асарлари авваламбор тасвирларнинг турли-туманлиги ва колоритини ўзига хос ечимда қўлланилиши билан қизиқарли ҳисобланади.

Шахрисабз шаҳри бадий каштадўзлик маркази яқинида жойлашган Китоб шаҳрида тарихий ривожланиш жихатидан умумий боғлиқлик бўлган, ва бу иккала шаҳар кашталарини бир ҳил нуқтаи назардан қўриб чиқишига асос бўла олади. Турли қўринишдаги Шахрисабз кашталарини учта асосий гуруҳга бўлиш мумкин.

Биринчи гуруҳдаги кашталар ислом дини таъсири остида шаклланган бўлиб, ўзида шаҳар эстетикасини акс эттиради.

Иккинчи гуруҳдаги кашталарга вилоят кашталари уйғунлиги асосида, яратилган бўлиб уларда ҳам машҳур шаҳарга ҳос кашталар мавзуси талқин этилади.

Учинчи гуруҳдаги кашталарда ўтроқ ҳаёт тарзига қайтган кўчманчи ҳалқлар диidi акс этган. Бу ҳалқлар шаҳарга оид бўлган ҳунармандчилик турларини ўзлаштириб, уларга ўзларининг ўзига хос бадий тимсол, намуналарини қўшганлар. Биринчи гуруҳга кирадиган кашталарни алоҳида ажралиб турадиган жиҳатларидан бири уларда ўсимликсимон гулли нақшларни бой қилиб ишланганлигидир.

Дарҳақиқат ўзбек кашталарининг гўзаллиги ва жозибаси, нақшларда қўлланилган элементларнинг қадимийлиги тикиш усууларининг ранг-баранглиги ҳалқ амалий санъатининг бу тури узоқ тарихий тараққиёт босқичини босиб ўтганлигидан далолат беради. Қашқадарё воҳасининг гўзал шаҳарларидан бири таҳминан III минг йил олдин шаклланган Шахрисабз бир қанча муҳим тарихий воқеаларни бошдан кечирган. Ўрта асрларда ушбу шаҳар буюк соҳибқурон Амир Темурнинг юрти сифатида машҳур эди. Бу ерда Оқ сарой, Темурийларнинг оиласи Дорус Саодат, Дорут-Тиловат (Қуръон ўқиладиган жой), Кўк Гумбаз каби меъморчилик ёдгорликлари жойлашган.

XIV-XV асрларда Шахрисабз шаҳрида аҳоли зич жойлашган бўлиб, у Мовароуннахрнинг йирик маданий маркази ҳисобланган. XIX аср ўрталаридан эса Шахрисабз шаҳри Бухоро амирлигига буйсунган. Бу ерда аввалидек савдо-сотиқ ва ҳунармандчилик ривожланади, ҳамда ўрта асрлардаги мусулмон бадий анъаналари ўз аҳамиятини сақлаб қолади.

Тадқиқотлар бир неча бор Қашқадарё хусусан, Шахрисабз ва Китоб кашталарини турли хилдаги гулли нақшлари билан Бухоро ва Нурота

каштадўзлик буюмларига ўхшаб кетиши аниқланган. Бу тасодифий эмас. Чунки амирлик маркази ҳисобланган Бухоро шахри бошқа шахарлар учун эталон сифатида қабул қилинib, унга барча соҳаларда ва шунингдек каштадўзлик санъатида ҳам тақлид қилинган.

Бундан ташқари шаҳарлар бадиий маданияти умумий тенденцияда ривожланади. Шунингдек кашталар нақшлари ва меъморчилик ёдгорликлари безакларида кўпгина ўхшаш жиҳатларни топиш мумкин. Маҳаллий сўзаналарда қўлланиладиган энг машҳур композиция бу марказ қисмида тўлқинсимон ёки юлдузсимон розеткаларни йирик медалён кўринишида тасвирланишидир. Уларнинг атрофида гулли мавзулар тасвири туширилган. Одатга кўра кашталар ҳошияси кенг ишланиб, унинг безатилишига ҳам катта эътибор талаб этган. Ушбу гурухга кирадиган баъзи бир буюмлар лачактурунж классик схемасини такрорлаган. Нақшлар маълум ҳудуд бадиий маданиятининг ўзига хос хусусиятларини намоён этувчи муҳим манба ҳисобланади. Унинг умумий тарзда тарқалиши илоҳиётни шеъриятда ифодалангани сингари қиёфалантириш билан боғлиқ бўлиб, бу ислом динининг муҳим хусусиятларидан бири ҳисобланади. Мусулмон нақшлари композициясида классик услубдан фойдаланиш Шахрисабз ва Китоб шахри амалий санъатида худди Бухоро ва Нурота каби Яқин ва Ўрта Шарқ бадиий тенденцияларини бир хил оқимда ривожланганлигидан далолот беради. Шахрисабз ва Китоб кашталарининг нақшлари орасидаги кенг тарқалган яна бир машҳур нақш тури бу чор-чироғ (тўртта чор чироғ) компазицияли мавзууси ҳисобланади. Бу мавзу кашта буюмининг марказий қисмини ёки ҳошиясини безаб турган. Кашталар кишиларга эстетик завқ бағишилаши ўйларни безатишдаги аҳамияти билангина эмас, балки асрлар давомида шаклланган одат ва расм-руслар сабабли ҳам омма ичиди кенг тарқалган. Қашқадарё кашталари Ўзбекистоннинг диярли барча музейларида ранго-ранг товланиб турувчи, кишини бир кўрганда мафтун этувчи ажойиб кашталари сақланади.

Амалий санъатда яна чор-чироғлар тасвири зардуштийлик дини билан боғлиқ, ҳолда ривожланади. Чор-чироғлар рамзий маънода оташхона ёки илоҳий оловни билдиради. Улар ибодатхоналарнинг тўрт бурчагига ўрнатилган. Кашталарда чор-чироғлар марказий қисмига худди гулли розитка каби тасвирланган. Ушбу розетканинг тўрт томонидан нафис шохчалар орқали бириктирилган палметталар атрофида баргли ҳалқалар ифодаланган. Чор-чироғ мавзууси рамзий маънода ҳимоя вазифасини ҳам бажарган. Шахрисабз ва Китоб каштадўзлиги доимо Бухоро ва Нурота каштадўзлиги билан боғлиқликда ривожланган.

Маҳаллий услубнинг ўзига ҳослиги биринчи навбатда зардустийлик динига бўлган содиқлик билан боғлиқdir. Кейинчалик кашталарга табиий ўсимликсизон гулли мавзулар розетка, палметталар қўшиб ишланади ва бу жараёнда зардустийлик рамзларининг моҳияти қисман унитилади. Бунга мисол қилиб чироғлар тасвирини астасекинлик билан ўсимликсизон мавзуларга айланиши ҳолатини келтиришимиз мумкин. Кашталар ҳошиясида қўлланиладиган машхур нақш турларидан яна бири бу икки ён томонидан тишли шоҳлар билан ўралган катта ва чиройли гулли палметталар тасвири ҳисобланади.

Кашталардаги нақшларнинг чиройли ва ўзига хос гўзал бўлишига ёрдам берган чок турлари ҳам катта аҳамиятга эга бўлган. Улардан бири санама услубининг ўзига хос ҳамда аҳамиятга молик томони шундаки, бу усулда тикилган нақш шакллари жуда аниқ чиққан ва бир-биридан ажralиб турган. Нақшлар орасидаги масофа бир мил бўлган. Тикиш давомида атиги бир катак адашилса иш шакли бузилган ва ишни бузиб қайтадан тикишга тўғри келган. Шу сабабли санама чокида тикувчилардан кўпроқ диққат талаб этилган.

Чизма чок услубида ҳам асос ҳудди санама услубидагидек бир хил. Бу чок турининг санама чок туридан фарқи шундаки, бунда шакллар санаб эмас, балки чизиб тикилган. Бунда ишнинг сифати юқоридаги каби каштасига эмас, кўпроқ чизмачига боғлиқ бўлган.

Кандаҳаёл услубида нақш бўлагидаги узун томонининг бир четидан иккинчи четига ип тортилган ва кўндаланг чок билан тикиб чиқилган кейинги ип олдинга бўйлама тортилган ва ҳудди аввалгисидек энига тикилган.

Йўрма чок узлуксиз занжирлар қаторидан иборат бўлиб, бу занжирчалар тикилаётган гул шакли бўйлаб уни бир неча қисмларга бўлишда ишлатилган. Гул шаклининг чети тикиб бўлингандан сўнг гулнинг ичи турли тасвирлар тикиб чиқилган. Катта гулларни йўрма занжiri билан тўлдиришда каштасилар эркин услугга суюнганлар. Натижада кашта юзаси қўшимча декоратив бўлинишларга эга бўлди. Ҳамда ялтироқ шойининг ранг-баранг товланиши билан уйғунлашиб, чиройли манзара ҳосил қиласи. Йўрма чоки игна ёки чамбаракка тортиб илмоқ билан тикилган.

Қашқадарё каштасилигида кам учрайдиган хомдўзи усули, асосан икки томонига гул тикиладиган майда буюмларга қўлланилган ва икки томони гулли бўлиши шарт бўлмаган йирик деворий кашталарнинг бир томонига тикилган. Барча бадиий воситалар орнамент тузилиши ва унинг декоратив талқини, ранг жиҳатдан ҳал этилиши, буюмларнинг танланиши ва тикув техникаси бир-бирига жуда боғлиқdir. Уларнинг бири иккинчисини тўлдиради, бойитади ва ҳар жиҳатдан қисмлари бир-

бирига узвий бўлган декоратив бадиий асар яратишга хизмат қиласди. Халқ санъаткорларининг зўр бадиий диди безакларни матога ўз ўрнини топиб жойлаштиришда ҳам кўринади. Улар газламани ҳаддан ташқари безаб ташламайдилар, шу билан бирга, бекорчи бўш жой ҳам қолмайди. Шу сабабли фон ва безаклар бир-бира узвий жойлашади ва гўзал санъат асари яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Хакимов А.А. Искусство Узбекистана (история и современность). - Ташкент.: Издательство журнала Санъат, 2010.
2. Хакимов А.А. Прикладное искусство Узбекистана (традиции и инновации). - Ташкент.: Ўзбекистон, 2013.
3. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати.- Ташкент.:Меҳнат, 1991.
4. Григорьев Г. Тус дўппи. - Ташкент.: Искусство, 1937.
5. Бинафша Нодир. Қашқадарё аёлларининг XX аср биринчи ярмидаги анъанавий либослари// Санъат.№3. 2010.
6. Элмира Гул. Қашқадарё воҳасининг XIXаср-XXаср бошларидаги санъати ва ҳунармандчилиги// Санъат №2 2005.
7. Хайитбобоева, КП (2021). Исследование проблем традиций и инноваций в современном узбекском народном искусстве. Американский журнал социальных наук и образовательных инноваций, 3 (11), 14-20.
8. Xakimov A.A, Xayitboboyeva X.P. Badiiy tanqid tarixi va nazariyasi. O'quv q o'llanma/ T.:“D iM al” nashriyoti - 2024. -148bet. <https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=11669>

KOMIL XORAZMIY – SERQIRRA TARIXIY SHAXS

Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich

Urganch davlat pedagogika instituti,
Tarix va geografiya kafedrasи o'qituvchisi.
E-mail: allanazarovshohruh@gmail.com
Tel.: +998937454329

Annotatsiya: Maqola XIX asr Xorazm madaniy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Komil Xorazmiy haqida bo'lib, unda ushbu tarixiy shaxs hayoti, faoliyatiga oid birmuncha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Komil Xorazmiy, XIX asr, Xiva xonligi, Xorazm ijtimoiy-siyosiy hayoti, Xiva adabiy muhiti, musiqa san'ati, xattotlik, yuzboshi, devonbegi, mirzaboshi.

Abstract: The article is about Kamil Khorezmi, who made a great contribution to the cultural development of Khorezm in the 19th century. It contains some analytical information about the life and activities of this historical person.

Keywords: Kamil Khorezmi, 19th century, Khanate of Khiva, socio-political life of Khorezm, literary environment of Khiva, music art, calligraphy, yuzbashi, devanbegi, mirzaboshi.

Аннотация: Статья посвящена Камилу Хорезми, внесшему большой вклад в культурное развитие Хорезма в XIX веке. Содержит некоторые аналитические сведения о жизни и деятельности этой исторической личности.

Ключевые слова: Камиль Хорезми, XIX век, Хивинское ханство, общественно-политическая жизнь Хорезма, литературная среда Хивы, музыкальное искусство, каллиграфия, юзбashi, деванбеги, мирзабоши.

XIX asr Xorazm adabiy, siyosiy muhitining eng yorqin shaxsiyatlaridan biri Komil Xorazmiydir. Serqirra iste'dod egasi Muhammadniyoz Komil milliy madaniyatimiz tarixida nafaqat shoir, balki yirik siyosiy arbob, taniqli musiqashunos, mohir tarjimon, yetuk xattot sifatida chuqur iz qoldirgan.

Komil Xorazmiy 1825-yilda Xiva shahrida tug'ildi. Uning otasi Abdulla Oxund madrasada mudarris bo'lgan. Komil Xorazmiyning asli nomi Pahlavonniyoz bo'lib, Komil uning adabiy taxallusidir. Komil maktab va madrasalarda o'qib, zamonasiga ko'ra yaxshi tahsil oladi. Mutolaa bilan shug'ullanadi va davrining yirik shoirlari suhbatlariga qatnashadi, ilm tajribasini orttiradi. Bo'lajak iste'dod egasi Komil Xorazmiyning ilmiga ixlosmand bo'lganligini ko'pgina yozuvchi, shoirlarning asarlarini qunt bilan o'qiganligidan bilsak bo'ladi.

Pahlavon Niyoz Muhammad Komil Xorazmiy XIX asr ikkinchi yarmida Xorazmda yetishib chiqqan ko'pqirrali ijod sohibi bo'lib, o'zining yuksak iste'dodini she'riyatda, tarjimachilik, xattotlik va musiqa san'atida, davlat ishlarida va siyosatda namoyish qildi. U faoliyatining qaysi sohasida ish ko'rmasin, ilg'or g'oyalarning tantanasi uchun kurashdi.¹ Komil Xorazmiyning serqirra ijodkor ekanligini shu yerdan ko'rish mumkinki, u ko'pgina faoliyat turlari bilan shug'ullanib, Xiva xonligidagi madaniy taraqqiyotga benihoya hissa qo'shgan.

Komil Xorazmiyga Pahlavon laqabi berilgan. Bu laqabni berilishiga sabab o'sha vaqtida Xiva xonligida turkman yavmut urug'i vakillari bilan murosasiz to'qnashuvda jang san'atidan xabardor bo'lgan Muhammad Niyozning Qaroboloq bilan olishganligi misol keltirilgan. Bayoni o'z asarida Komil Xorazmiyni Pahlavonniyoz yuzboshi sifatida keltirgan. Muhammad Yusuf Bayoniying "Shajarai Xorazmshohiy" asarida ushbu voqeа quyidagicha keltiriladi: "Sangarlarning atroflarida har kun bu tariqa urushlar bo'lur erdi. Bir kun Ko'rganli bir yamutkim, Qaroboloq laqabi bila mulaqqab erdi, bag'oyat zabardast va mergan erdi. Bir miqdor yamutg'a bosh bo'lub, Muhamadmurod devonbegining sangariga kelib urush boshladi. Lashkarga ondin ko'p dastburdlar² yetdi, bir kun Muhamadmurod devonbegi dedi: "Har kishi ushbu Qaroboloqni otini ursa, besh yuz tillo va o'zuni ursa, ming tillo berurman". Pahlavonniyoz yuzboshi bu so'zni eshitib, bir ko'hna yof³ ichi bila buqub yurub maydonning bir tarafida bir ko'hna devor bor erdi, oning panohig'a bordi, ul vaqtida Qaroboloq maydong'a ot solib keldi. Pahlavonniyoz onga bir o'q otdi. O'q otig'a tegib yiqildi. Qaroboloq otdin judo bo'lub bildikim, ul devorning orqasida kishi bordur, ul yerda bir necha to'p yulg'un bor erdi, oning panohiga kirib turdi. Ul vaqtida Pahlavonniyoz boshig'a kiygan nimani miltuqning uchig'a ildurub, ohista yuqorig'a ko'tardi. Qaroboloq oni miltuq otgan kishining o'zi gumon etib, miltuq bila oni urdi. Ul vaqtida yamutlar bildilarkim, emdi ul mergan Qaroboloqning ustiga borib oni qatl etar. Filhol, hujum etib ot soldilar. Bu tarafdin Xavaq lashkari ham ot solib kelib Pahlavonniyozni olib qaytdilar. Yamutlar Qaroboloqni olib qaytdilar."⁴ Muhammad Yusuf Bayoniying yozishicha, Pahlavonniyoz (Komil Xorazmiy)ning yavmutlar sarkardasi Qaroboloq bilan jangini tasvirlar ekan, uning botirlik va merganlarga xos jasoratini alohida ta'kidlab o'tgan. Ushbu jihatlari ila Komil Xorazmiyni harbiylik mahoratini ko'ramiz.

¹ Солаева М. Навоий ва Хоразм шоирлари. Урганч, 1993. Б.62

² Dastburd – zarba, shikast, zarar.

³ Yof – ariq.

⁴ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшохий. Тахрир хайъати: Б.Аҳмедов ва бошқ. Тошкент: Камалак, 1991. Б.200

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II ning (1864-1910-yillarda davlatni boshqargan) ilm-ma'rifatga e'tibori, adabiyotga ixlosi tushishida Komil Xorazmiyning alohida o'rni bor. Bu haqida Xodim shunday yozadi: "Muhammad Rahimxon ikkinchi necha yoshdan boshlab shoirlig bilan shug'ullang'on, shug'ullanishiga sabab nima bo'lg'on, degan masala muhimdir. U o'n sakkiz yoshinda Xorazm podsholig'i taxtig'a o'turub, arzi dod vaqtinda xalqning arzini surab, oqshomliqda ziyofat qilishg'a boshlag'on. Bu ziyofatlarning boshlig'i Matmurod Devonbegi bo'lg'on. Muhammad Rahimxon ikkinchi butun xarajatlarni qilish haqida Devonbegiga buyruq bergan. Shuningdek, Xon Matmurod Devonbegiga madrasa ahli ichida xushovoz mullalar va hofizlar bo'lsa, topib kelishni topshirgan. ... Matmurod Devonbegi Komil Xorazmiy, Qozi Muhammad Karim o'g'lini topib olib borg'on. Komil Xorazmiy ham shoir, ham musiqashunos bo'lg'on. U Muhammad Rahimxon ikkinchiga Navoiyning g'azallaridan o'qib, soz qilib berg'on. ... Shoirlik qilmog'ig'a sabab shu ziyofat bo'lg'on."⁵ Komil Xorazmiyning she'riyatdan va musiqadan xabardorligi, xushovoz sohibi ekanligi xonning she'riyatga oshno bo'lishiga sabab bo'lgan.

Komil Xorazmiy Xiva xonligida davlat ishlarida ham faol qatnashgan jamoat arboblaridan edi. Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan Xiva xonligi

1873-yilda bosib olinib, yarimmustamlaka sharoitiga o'tgandan so'ng Komil Xorazmiy devonbegilik lavozimiga tayinlanadi. Devonbegining vazifasi xonlikda daromad ishlariga mas'ul hisoblangan. Bayoniy Komil Xorazmiyga devonbegilik lavozimiga tayinlanganligini quyidagicha yozib o'tadi: "Vaqtekim, Rusiya askari ko'chub o'z viloyatlarig'a kettilar, xon hazratlari taxti davlatda qaror tutib, Pahlavon Mirzoboshini Muhammadmurod devonbegining o'rnig'a devonbegi qildilar..."⁶.

U davlatda devonbegilik mansabini egallab turgan bo'lsada, shoirlik fazilatlaridan tashqari, yetuk musiqashunos bo'lib, tanbur soziga yarim maqom sozini orttirib, "Maqomi Feruz"ni yaratgan mohir sozanda va bastakor edi. Muhammad Rahimxoni soniy (adabiy taxallusi Feruz) Komil Xorazmiyning bir necha bor Moskva, Toshkent va Peterburgga safar etishi uchun imkoniyat yaratib, 12 notani to'liq o'rganishni va uni Xorazm musiqa ilmiga tadbiq etishni topshirgan va bu ishning qanday borayotganligi to'g'risida deyarli har kuni qiziqib borar edi.⁷

⁵ Бобоҷон Тарроҳ Азизов - Ҳодим. Ҳоразм навозандалари: XIX аср охири - XX аср бошларида Сайид Муҳаммад Раҳимхони соний даврида яшаган шоирлар ҳақида есдаликлар. Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. Б.17

⁶ Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. Таҳрир ҳайъати: Б.Аҳмедов ва бошқ. Тошкент: Камалак, 1991. Б.231

⁷ Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати: Тарихий-бадиий лавҳалар. Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. Б.86-87

Shoir va bastakor Komil Xorazmiy o'zbek adabiyoti, san'ati, madaniyati rivojiga katta va betakror hissa qo'shgan shoir sifatida o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos salmoqli o'rinnegallab, xushxat xattot, mohir musiqachi, bilimdon bastakor va davlat arboblari sifatidagi xizmatlari bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirgan.



СЕТЕРАТУРА КАК СОВРЕМЕННОЕ, СОЦИАЛЬНОЕ, КУЛЬТУРНОЕ ЯВЛЕНИЕ

Эшкобилов Абдивали

PhD, доцент СамГИИЯ

Усмонова Мавлюда

студентка 2-го курса СамГИИЯ

Annotation. This article examines the phenomenon of seterature as a new literary trend that has emerged in the digital age. It analyzes its key characteristics, forms, and impact on culture and society. Particular attention is given to seterature as a form of social and cultural heritage that reflects the values, trends, and processes of contemporary society.

Keywords: seterature, digital culture, social phenomenon, internet literature, cultural phenomenon.

В статье рассматривается феномен сетературы как нового направления в литературе, возникшего в цифровую эпоху. Анализируются его основные характеристики, формы, а также влияние на культуру и общество. Особое внимание уделяется сетературе как социальному и культурному наследию, отражающему ценности, тенденции и процессы современности. Дополнительно рассматриваются новые тренды, такие как AI-генерация текстов, литература в TikTok и развитие фанатских сообществ.

Ключевые слова: сетература, цифровая культура, социальное явление, интернет-литература, культурный феномен, искусственный интеллект, фанфикшн, TikTok-литература.

Литература всегда отражала культурные и социальные процессы своего времени. В эпоху цифровых технологий и интернета появилась новая форма литературного творчества - сетература (от "сеть" + "литература"). Это явление объединяет тексты, созданные и распространяемые в цифровой среде, включая блоги, социальные сети, фанфики, интерактивные истории и гипертекстовые романы. [1]

Сетература стала не только средством самовыражения, но и важным элементом культурного наследия современного общества. Ее влияние на язык, коммуникацию и восприятие текста требует анализа с точки зрения гуманитарных наук, особенно в контексте сохранения и передачи культурных ценностей. [2]

Сетература — это новый жанр и форма существования литературы в условиях цифровизации и Интернета. Одной из ключевых характеристик сетературы является её доступность: произведения создаются и публикуются без традиционных издательских барьеров, что

позволяет авторам напрямую взаимодействовать с аудиторией. Платформы для публикации и распространения произведений, такие как блоги, социальные сети и онлайн-издания, позволяют авторам оперативно получать обратную связь от читателей и адаптировать свои работы в процессе создания.

Сетература также активно интегрируется с другими цифровыми медиа, такими как видео и музыка, что делает её мультиформатной и гибридной. Например, произведения в жанре фанфикшн (Fanfiction) часто сопровождаются иллюстрациями, видеофрагментами или песнями, создавая полифоничное художественное пространство. Эта интеграция позволяет формировать новые, более интерактивные формы художественного восприятия.

Исходя из разных мнений распространенных в различных источниках, можно суммировать основные свойства сетературы.

Сетература — это литература, которая:

Создается и распространяется в цифровой среде (в блогах, соцсетях, на форумах, в мессенджерах).

Часто имеет открытую структуру — тексты могут редактироваться, дополняться комментариями, изменяться в режиме реального времени. [4]

Включает интерактивные элементы — читатель становится соавтором, влияя на сюжет. [5]

Использует гипертекстуальность — текст связан с множеством ссылок, что расширяет его восприятие.

Опирается на мультимедийность — текст может сочетаться с изображениями, аудио- и видеоконтентом.

Эти особенности делают сетературу особым феноменом, отличающимся от традиционной литературы, но при этом наследующим ее культурные функции. [1]

Примеры сетературы

Например, многие онлайн-платформы активно используют сетературу для того, чтобы говорить о правозащитных вопросах, социальных движениях, проблемах равенства и инклюзивности.

Одним из ярких примеров является феномен #MeToo, который активно развивался и распространялся в социальных сетях, поддерживая протестные и культурные движения через личные рассказы и высказывания, распространяемые через сетературу. Сетература позволяет индивидуальным голосам, ранее не имеющим канала для публичного выражения, быть услышанными и влиять на общественное сознание.

Фанфикшн – произведения, написанные поклонниками на основе популярных книг, фильмов, сериалов. Например, фанфики по "Гарри Поттеру" или "Игре престолов" формируют самостоятельные литературные вселенные [6].

Гипертекстовые романы – интерактивные истории, где читатель выбирает ход сюжета. Яркий пример — "Choice of Robots" (интерактивный роман в формате гипертекста) [4].

TikTok-литература – микролитературные произведения в формате коротких видео, часто сопровождаемые визуальными эффектами [5].

Социальные и культурные аспекты сетературы.

Сетература и демократизация творчества

Цифровая среда делает литературу доступной для каждого. Любой автор может опубликовать свою книгу в интернете без издателя. Это снижает барьеры между писателем и читателем.

Изменение роли читателя

Читатель в сетературе не пассивен, а активно участвует в создании текста. Например, в фанфиковых сообществах пользователи предлагают сюжеты, голосуют за повороты истории .

Фрагментарность восприятия

Из-за цифровой среды текст часто воспринимается в частях (постах, комментариях), что меняет привычные литературные формы [2].

Искусственный интеллект и литература

Современные технологии позволяют AI-алгоритмам создавать тексты. Например, GPT-модели генерируют рассказы, стихи и даже романы. Это ставит вопрос: может ли AI стать автором в полном смысле? [6].

Глобализация. Сетература распространяется без территориальных границ, что приводит к смешению языков, культурных кодов и интертекстуальности.

Эти процессы делают сетературу значимой частью культурного наследия XXI века, фиксируя новые формы коммуникации и художественного самовыражения.

Сетература как культурное наследие. Традиционно культурное наследие ассоциируется с материальными объектами (архитектура, живопись, книги) или нематериальными явлениями (фольклор, устные традиции). Однако в цифровую эпоху наследие приобретает новую форму — оно существует в интернете, в виде текстов, блогов, сетевых романов и интерактивных проектов.

Сохранение сетературного наследия.

Проблема сохранения цифровой литературы

Многие цифровые тексты исчезают из-за закрытия платформ, удаления постов, смены алгоритмов. Необходимо создавать архивы сетературы, чтобы сохранить её как культурное наследие [1].

Академическое изучение сетературы

В последние годы сетература становится объектом научного интереса. Ее анализируют в контексте медиалингвистики, цифровой филологии, кибер-искусства. Важным направлением является изучение влияния цифровых технологий на язык и структуру текста.

Сетература уже стала объектом научных исследований в области цифровой гуманитаристики. Исследователи анализируют:

- влияние цифровой среды на язык (мемы, сленг, сокращения);
- новые формы повествования (интерактивные тексты, AI-литература);
- трансформацию традиционных жанров (например, романы в формате чатов) [6].

Примером может служить исследование феномена фанфикшена как формы коллективного творчества, в котором читатели и авторы активно взаимодействуют. Также интересен анализ блоговой литературы, где авторы создают автобиографические тексты в режиме реального времени.

Сетература — это не просто новый литературный жанр, а важный культурный феномен, отражающий изменения в обществе. Она объединяет традиционные литературные практики с новыми формами цифрового творчества, формируя уникальное социальное и культурное наследие.

Чтобы сохранить это наследие, важно осознавать его ценность, изучать и поддерживать сетевые литературные проекты, создавая архивы и критические исследования. Создавать критические издания сетевых произведений. [6] Только так сетература сможет стать частью будущего культурного пространства и войти в историю литературы XXI века.

Литература

1. Манн, И. "Цифровая культура и литература". — М.: Новое издательство, 2020.
2. Жеребило, Т. "Сетература и её особенности в контексте медиакультуры". — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2019.
3. Болтер, Д., Грусен, Р. "Ремедиация: Понимание новых медиа". — М.: Логос, 2018.
4. Соколов, А. "Интерактивные тексты и их будущее". // Журнал "Литературоведение в XXI веке", 2021, № 3.

5. Дженкинс, Г. "Культура участия: Как соцсети изменили литературу". — Нью-Йорк: MIT Press, 2021.

6. О'Салливан, Д. "Фанфикшн как феномен массовой культуры". — Лондон: Routledge, 2020.



**TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHDA
O'QITUVCHILAR MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI****Komilova Mijgona Baxodirovna**

Osiyo Xalqaro universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarning ta'limgandi o'rni va o'qituvchining ushbu ilg'or texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llay olish malakasini shakllantirish ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit sozlar: o'qituvchi, texnologiya, axborot, malaka, ta'lim, o'quv jarayoni.

Har bir o'qituvchining o'ziga xos o'rni uning pedagogik mahorat sohibi bo'lishi, o'z sohasining yuksak bilimi, pedagogik mahorati, axloqiy fazilati bilan bog'liq. Ana shunday shaxsiy fazilatlar qatorida o'qituvchining axborot texnologiyalarini egallashi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olishi muhim jihatlaridan biridir. Zamonaviy o'qituvchilardan ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, bu texnologiyalardan samarali foydalanish malakalarini shakllantirish talab etiladi. Binobarin, zamonaviy o'qituvchidan axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, doimiy ravishda mustaqil o'rganish va axborot texnologiyalarini o'rganilayotgan fanlarga qo'llash, darsni tashkil etish ko'nikmasini shakllantirish talab etiladi.

O'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatida ilg'or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishi uning kasbiy mahoratini, o'qitish uslublarini boyitadi. Demak, o'qituvchining o'quv-tarbiya jarayonida samarali faoliyat yuritishi uchun pedagogik texnologiyani yaxshi bilishi, yangi metodlarni yarata olishi, ijodiy pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur.

Pedagogik mahoratga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilar talab qilinadi: pedagogik takt va hodisalarni umumlashtirish qobiliyati, pedagogik faoliyati va o'quvchilarining faoliyatini boshqara olish qobiliyati, yuqori bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi.

Hozirgi davrning asosiy tamoyili shundaki, biz globallashgan va giper-axborotlashgan jamiyatda yashayapmiz. Prezidentimizning "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli farmonida ko'rsatilganidek, "tez o'zgarib borayotgan murakkab va muhim masalalarni hal etishda, yoshlarni zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida tarbiyalash va dunyoqarashini shakllantirishdir". Shuningdek, mamlakatimizda axborot va ta'lim sohasida internet resurslaridan foydalanishga oid ko'plab qonun va qarorlar qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Axborot texnologiyalari sohasi o'qituvchi uchun zarur bo'lgan sohalardan biridir. O'qituvchi tizimni o'zlashtirishga, bu boradagi yangiliklardan xabardor bo'lishga qiziqadi. Binobarin, malakali o'qituvchi ta'lif muassasalarida o'quvchilarga ta'lif mazmunini axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va zamon talablaridan kelib chiqib tushuntirishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari zamonaviy kompyuter va tarmoq vositalaridan foydalanishga asoslangan. Axborot texnologiyalari deganda ob'ekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti) holati to'g'risida yangi sifatdagi ma'lumotlarni olish uchun ma'lumotlarni (birlamchi ma'lumotlarni) yig'ish, qayta ishslash va uzatish vositalari va usullaridan foydalanadigan jarayon tushuniladi.

O'qituvchi nafaqat o'z fanlari bo'yicha fundamental bilimlarga ega bo'lishi, balki bu bilimlarni o'quvchilarga yetkaza olishi yo'llarini zamonaviy tarzda tashkil etish, axborot texnologiyalarning o'ziga xos imkoniyatlarini bilishi va ularni o'quv jarayonida qo'llay olishi, o'quv quroli sifatida foydalana olishi kerak. Axborot texnologiyalaridan foydalanish turli didaktik materiallar majmuasini yaratishga imkon beradi: testlar, mustaqil topshiriqlar, baholashlar, interfaol testlar va modullar, turli vazifalar to'plami, elektron darsliklar va boshqalar. Shundan kelib chiqqan holda o'qituvchilar axborot texnologiyalar sohasida nimalarni bilishi kerak:

- qo'yilgan o'quv vazifalariga muvofiq elektron darsliklardan, boshqa o'quv qo'llanmalaridan disklardagi va internet tarmog'idan ma'lumotlarni topib, baholay, tanlay va aks ettira olish;

- ko'rgazmali kompyuterga qo'llanilayotgan dasturni o'rnatish, proyeksiyalash uskunasidan foydalanish, elektron didaktik materiallar yaratish usullarini o'zlashtirish;

- ma'lumotni ta'lif muammolarini hal qilish uchun samarali bo'lgan shaklda o'zgartirish va taqdim etish, mavjud manbalardan o'z o'quv materialini yaratish, turli ma'lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash, qaramaqarshi qo'yish va o'zgartirish;

- o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan materialarni optimal tarzda taqdim etish uchun dasturiy ta'minotni (matn va elektron jadval muharrirlari, bukletlar yaratish dasturlari, veb-saytlar, taqdimotlar) tanlay olish va ulardan foydalana olish;

- talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish vositalaridan (test dasturlari, elektron ish daftarlari va boshqalar) samarali foydalanish.

- shaxsiy elektron portfolio va talabalar portfelini tuza olish;

- tarmoq kommunikatsiya loyihalari (olimpiadalar, tanlovlар,) doirasida talabalarning ishini tashkil etish, o'quv jarayonini masofadan turib

qo'llab-quvvatlash. O'quvchilar qobiliyatlarni egallash faqat amaliyot orqali mumkin. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan o'quv materiallarini amaliy yo'naltirishga ko'proq e'tibor berilishi kerak. O'qituvchining bugungi kundagi vazifasi o'z fanini o'qitishning mazmuni va usullarini kengroq ko'rib chiqishga harakat qilishdir. Axbotot texnologiyalar kompetensiyasini tashkil etuvchi an'anaviy intizom bilan bog'liq ko'nikmalar va malakalarni birlashtirishga harakat qilish talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmoni.
2. Шоназаров З. У. Навыки учителя и способы использования информационных технологий в образовательном процессе, Психология и образования, №4 (106), 2023 й.
3. Малышева Т.В. Использование современных информационных технологий в образовательном процессе, Актуальные вопросы современной педагогики (III): материалы международной научной конференции, (г. Уфа, март 2013 г.). 176 с.



INNOVATIVE
WORLD

**ANTIK DAVR FAYLASUFLARI TALQINIDA INSON VA UNING
IJTIMOIYLASHUVI MASALALARI****Ergashev Ozodbek Shavkatovich**Senior Lecturer of the "Humanities" Department,
Andijan State Technical Institute

Tarixda juda chiroyli, ezgu niyatli va kuchli odamlar yashagan Atlantida haqida o'ta jozibali afsona mavjud. Bu afsonada aytilishicha, atlantlarning har biri o'zini o'ylab, o'z farovonligi haqida qayg'urib, o'zlashtirgan bilimlaridan shaxsiy maqsaddagina foydalanib, olamda insondan ulug'roq jonzot yo'q va har kim o'ziga o'zi qonun deb hisoblay boshlagach, Atlantida inqirozga yuz tutgan.

Atlantida haqidagi afsona katta axloqiy jihatga ega. U axloqiy noplilikdan saqlanishga chaqiradi, ayni vaqtda, inson o'z millatdoshlari va butun dunyo taqdiri uchun mas'ul ekanligi haqida ogohlantiradi.

Agrippa to'rt jildli "Okkult falsafa" asarida shunday yozgan: "Shuni bilginki, biz bu buyuk ishlarning sabablarini o'zimizdan tashqarida izlamasligimiz kerak, chunki bizning ichimizda Tangri va denga shak keltirmasdan astrologlar va alximiklar va'da qilgan barcha amallarni bajarishga qodir faol mavjudot yashaydi... Mo'jizalar yaratuvchi ibtido bizning o'zimizda mujassam. G'ayrioddiy harakatlar nafaqat yulduzlar, jinlar ko'magida, balki ruhimiz kuchlari bilan ham amalga oshiriladi, degan fikr "Okkult falsafa" asarida ko'p marta takrorlangan".[1.54]

Mil. avv. VII asr oxiri - VI asr o'rtalarida yashab ijod etgan Anaksimandrnning (Falesning shogirdi) tabiat haqidagi asari bizgacha yetib kelmag'an bo'lса-da, inson va olam munosabatlaringin ijtimoiy talqini ruh va tana munosabatlari orqali falsafiy tahlil qiladi. U o'z ustozи Fales singari fanning ko'p sohalari bilan shug'ullangan. Jon tushunchasini ustozи Fales singari moddiy narsa sifatida e'tirof etadi. Buning sababini u jonning harakati havoga o'xshashligida deb hisoblaydi. Falesning ta'limoticha, hamma narsa havodan paydo bo'ladi va pirovardida yana havoga aylanadi. Bizningcha esa suv, havo, tuproq va olov moddiy unsur sifatida namoyon bo'lganligi bois jon ham moddiy mavjudlik sifatida moddiy olam munosabatlariga asoslangan mohiyatdir.

Anaksimandr ilgari surgan ta'limotlarni uning zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettiradi. Milet maktabining uchinchi namoyondasi hisoblangan Anaksimen jon va moddiy olam munosabatlarida faol bo'lgan insonning paydo bo'lishi haqida gapirib, "Jon bu havo. Havo, ya'ni jon insonning paydo bo'lishida asos. Jon, ya'ni havo tanamizni bamisoli cheksiz havo, butun koinotni o'rab olgani va saqlagani kabi saqlaydi.[2.21]

Anaksiman faqat inson ijtimoiy, ma'naviy mohiyatini yoritish bilan cheklanmay balki, butun borliq evolyutsiyasida inson dunyoqarashining g'oyasini ham ilgari suradi. Bizningcha, bu murakkab borliqda inson kabi murakkab mavjudot boshqa murakkab mavjudotlar va hatto xudo bilan uzviy bog'lanish, o'zaro ta'sir ostida bo'ladi degan fikrni ta'kidlaydilar.

Yunon olimi Geraklit (530-470) moddiy olamning asosiga olov elementini qo'yar ekan, olovni olamning asosini tashkil etuvchi moddiy ibtido deb bilibgina qolmay, balki undan hamma narsa – tabiat, jamiyat, hayot sifatida paydo bo'ladigan asos, deb uqtiradi. Aristotelning bayon qilishicha, Geraklit olovning asosiy manbai bo'lgan quyosh nafaqat har kuni yangi, balki quyosh doimo to'xtovsiz yangilanib turadi degan edi. Hamma narsa doimo o'zgarib turadi, - deydi Geraklit. Uning tushunishicha, vujudga kelish har bir narsaning bir holatdan ikkinchi holatga to'xtovsiz o'tib turishi orqalidir. Ana shu vujudga kelish ma'nosida Geraklit insonlar va xudolarning vujudga kelishi to'g'risidagi qarashlarni quyidagicha ifodalaydi. "Kurash va o'zgarish birovlarni xudo, boshqalarni inson qilib yaratgan".[3.22]

Bu borada E.Kassirer o'ziga xos xulosaga kelgan. Uning fikricha, «kosmologik va antropologik tafakkur o'rtasidagi chegarada Geraklit turadi; u naturfaylasuf sifatida fikrlagan va qadimgi "fiziolog"lar qatoriga kirgan bo'lsada, inson sirini ochmasdan tabiat sirining tagiga yetib bo'lmasligini tushungan. Shu sababli, Geraklit falsafasini quyidagi ibora bilan tavsiflash mumkin: "Men o'zligimni o'zim izlayman".[4.50] Geraklit insondagi hissiy bilish jarayonining, uning tana tuzilishi bilan bog'liq ekanligi to'g'risidagi fikrlarni bayon etar ekan, joni dag'al, ya'ni tanasi dag'al bo'lgan kishilarda olov elementi kam bo'ladi, shuning uchun ham ularning hissiyot uyg'otuvchi tashqi organlari haqiqiy bilim bera olmaydi, deb uqtiradi.

Tarixiy manbada ko'rsatilishicha, Pifagor o'z ta'limotini og'zaki ravishda targ'ib qilgan, buning sababi u yashirin ta'limot sifatida shogirdlari tomonidan ham sir tutilgan deyiladi. Pifagor nafaqat matematika asoschisi, balki musiqa intervallari orasidagi munosabatga asoslangan qonuniyatni yaratgan donishmand ham edi. U musiqani insonga ruhiy ta'sir o'tkazuvchi, qalbni poklovchi, tozalovchi vosita sifatida e'tirof etadi. Pifagor asos solgan qadimgi maktabda musiqa insonni poklovchi, davolovchi hamda estetik zavq beruvchi, shuningdek, butun borliqning uyg'unligini ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etgan.

Qadimgi yunon shoiri va faylasufi, miloddan avvalgi VI asrning oxiri-V asrning o'rtalarida yashab ijod etgan Ksenofan birinchilardan bo'lib insonlar xudolarning, xudolar esa insonlarning ijod mahsulidir, degan fikrni ayta olgan edi. Ksenofanning fikricha, xudo hamma narsalarning dastlabki asosidir. Uning qarashlarida xudo tabiat bilan uzviy bog'liq holatda namoyon bo'lgan. Uning ta'kidlashicha, hamma narsa tuproqdan tashkil topgan va pirovard

natijada yana unga aylanadi. Tug'iluvchi va yakun topuvchi har bir narsa tuproq va suvgaga bog'liq. Bu ikki narsa hayot manbaidir. Hatto jonlar ham tuproq va suvdan tashkil topgan. U ko'pxudolilikka va antropomorfik ta'limotga qarshi chiqqan. Shuningdek, antik davrdagi aqliy oqim sifatida vujudga kelgan sofistlar falsafiy oqimining katta guruh sofistlari Protogor, Gorgiy, Gippiy va Prodiglar ta'limotida ham "inson barcha narsalarning mezonini, mavjudlarning mavjudi, nomavjudlarning nomavjudidir", [5.80]-degan g'oyani ilgari surgan.

Aristotelning "Rux haqida" nomli asarida, shuningdek, "Metafizika" sida rux bu tana emas, ammo u tanaga taalluqlidir, ruxning oliv jihatiga aqldir, u ruxning oxirgi sifatlaridan vujudga kelgan bo'lib, inson tafakkur qilishi jarayonida mukammallahib boradi, buning natijasida aql tanamiz singari parchalanmaydigan, hayotimiz singari cheklanmaydigan mohiyatga aylanib boradi. Aqldan tashqari tana a'zolarimizning barcha qismlari, tanamiz singari parchalanuvchidir. Insonning eng mukammal o'ziga xos qismi bu aqldir degan, antropologik g'oyalarni ilgari suradi.

Shuningdek, Afinada yashab ijod etgan Epikur 300 dan ortiq asarlar muallifi. Epikur falsafasining asosiy vazifasi aqlni charxlash va tafakkur qilish emas, aslida azob - uqubatdan qutulib, rohat-farrog'atga erishish tufayli, insonni baxtli hayot kechirishga o'rgatishidadir. [6.523] Epikur insonning mavjudligi to'g'risidagi antropologik qarashlarini bayon qilar ekan, uni tabiatning bir bo'lagi sifatida e'tirof etadi. Tanadan tashqarida jonning mavjudligi to'g'risidagi qarashlarga qarshi Epikur, tana o'lishi bilan jon ham tanani tark etadi, natijada inson o'lganidan so'ng Platon yoki platonchilar o'ylaganidek ruhiy-hissiy sezgi sifatida saqlanib qolmaydi, deya ta'kidlaydi.

Inson haqidagi ta'limotlarni tahlil qilishda, materialistlar aqlni ustuvor deb bilgan Aristotel tomonida turishni ma'qul ko'rdilar. Ammo, Platon va Aristotel qarashlarida, bizningcha, u qadar katta farq yo'q. Insondagagi aqliy va hissiy bilish jarayonida o'ta mavhum va murakkab fikrlash jarayoni faqat mavhumliklardan tashkil topa olmaydi, u hissiy ko'rgazmali unsurlarni ham o'z ichiga oladi. [7.9] Jonli tafakkurga har xil darajali tushunchalar va kategoriyalarning mavjudligi xosdir. Ma'lum tushuncha, fikr-mulohaza kategorial tizimda egallagan o'rni intuitsiya, muayyan darajada to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Агриппа О. Оккультная философия.-СПб.: АГРАФ, 2005.-С.54.
2. Qarang: Ф.В.Асмус. История античной философии.-С..21.
3. С.А.Йўлдошев. Антик фалсафа. Т. 1999.22 бет.
4. Фрагмент 101\ Материалисты древней Греции.-Москва.1955.-С.50.
5. Асмус. История античной философии. – С. 80.

MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	ZAVQIY ASARLARI TIL XUSUSIYATLARI Madaminova Tursunoy Ilhomjon qizi	3
2.	TASVIRIY SAN'ATNING PAYDO BO'LISH TARIXI Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi	7
3.	JOY NOMLARIDA LINGVOMADANIY BELGILARNING AKS ETTIRILISHI (GENDER XUSUSIYAT MISOLIDA) Toshtonova Muxlisa	12
4.	YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLANTIRISH YO'LIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR NING AHAMIYATI Abduraimov Sherli Arapov Mavlonbek	16
5.	YOSHLARNI UMUMINSONIY PRINSIPLAR ASOSIDA TARBIYALASHDA NAVOIY MEROSINING O'RNI Abduraimov Sherli Arapov Mavlonbek	19
6.	BOLALAR HUQUQLARI VA KAFOLATLARI DAVLATIMIZ HIMYOYASIDA Abduraimov Sherli Arapov Mavlonbek	23
7.	AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA TEXNOLOGIK TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi Mo'ydinjonov Ikromjon Ilhomjon o'g'li	27
8.	ЗАМОНАВИЙ ШАХРИСАБЗ КАШТАЧИЛИГИНинг ЎЗИГА ХОС БАДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ Бокиева Гузал Илҳом қизи.	32
9.	KOMIL XORAZMIY - SERQIRRA TARIXIY SHAXS Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich	37
10.	СЕТЕРАТУРА КАК СОВРЕМЕННОЕ, СОЦИАЛЬНОЕ, КУЛЬТУРНОЕ ЯВЛЕНИЕ Эшкобилов Абдивали Усмонова Мавлюда	41
11.	TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHUDA O'QITUVCHILAR MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI Komilova Mijgona Baxodirovna	46
12.	ANTIK DAVR FAYLASUFLARI TALQINIDA INSON VA UNING IJTIMOIYLASHUVI MASALALARI Ergashev Ozodbek Shavkatovich	49